ISSN: 2181-3035

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY-USLUBIY JURNALI

TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR

IMPACT FACTOR 8.2

Yuqori impact factor 8.2 ga ega bo'lgan Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Directory of Research Journals Indexing Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) kabi xalqaro ilmiy bazalarda indekslanadi va jurnal belgilangan sanada to'liq shaklda www.talqinvatadqiqotlar.uz rasmiy saytiga joylanadi.



Jurnalga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qiladi: Fizika-matematika fanlari, Kimyo fanlari, Texnika fanlari, Iqtisodiyot fanlari, Falsafa fanlari, Filologiya fanlari, Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlari, Sotsiologiya fanlari, Geologiya va mineralogiya fanlari, Tarix fanlari, Geografiya fanlari, Yuridik fanlari, San'atshunoslik fanlari, Arxitektura fanlari, Biologiya fanlari, Qishloq xo'jaligi fanlari, Tibbiyot fanlari, Farmatsevtika fanlari, Veterinariya fanlari.

talqinvatadqiqotlar.uz
+99891-152-93-14
talqin@bk.ru

№28
25.08.2023

CYBERLENINKA DRJI zenodo Google Scholar

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

UIF-2023: 8.2 | № 28

25.08.2023

talqinvatadqiqotlar.uz

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li
TATU Farg'ona filiali, Kompyuter tizimlari kafedrasi mudiri fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibragimova Mavluda Ro'zmetovna
Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi

Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna
O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O'rmonchilik va landshaft dizayn" kafedrasi dotsenti

Umarova Maxliyo Yunusovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori

Jepbarova Sayat Qurbanmiratovna
Qoraqalpoq davlat universiteti Turkman tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich
Farg'ona davlat universiteti mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri q.x.f.f.d (PhD)

Bazarov Otabek Odilovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti

Rahimova Maftuna Odilovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti

Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jo'rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Maxkamova Dilafruz Yuldashevna
O`zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasi dotsenti

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МЎҒУЛЛАР БОСҚИНИ АРАФАСИДА

Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич
Тарих фанлари номзоди, доцент
Ахсикент халқаро илмий тадқиқот жамоат бирлашмаси илмий ходими
Халқаро тарихчилар жамият аъзоси, Халқаро “Турон бирлиги” медали соҳиби

Аннотация: Ушбу мақолада Қорахонийлар давлатининг ташкил топиши, унинг Шарқий ва Ғарбий қисмларга бўлиниши, Шарқий Қорахонийлар давлатининг мўғул давлати таркибига қўшиб олиниши ва унинг сабаблари илк бор тарихий илмий, бирламчи манбалар асосида таҳлил қилинган. Фарғона водийси, Шарқий Туркистон ва Еттисув ўлкалари мўғуллар томонидан босиб олинмасдан, аксинча, тинч йўл билан қўшиб олинганлиги, бу борада совет тарихшунослигида берилган маълумотларнинг асоссизлиги, аксарият илмий хулосалар фақатгина тахминлар асосида берилганлигининг исботи келтирилган.

Калит сўзлар: Қорахонийлар, Қорахитойлар, мўғуллар, Ахсикент, Найманлар, Кучлук, Жўжи, Хоразмшоҳлар, жанг, Шарқий Қорахонийлар, Сирдарё, бўлиниш, Алоуддин Муҳаммад Хўтаний, Жэбе Нўён, зулм.

Марказий Осиё халқлари давлатчилиги тарихида узоқ вақт салтанат қурган бўлишига қарамай, тарихи энг кам ўрганилгани бу – Қорахонийлар давлатидир. Ваҳоланки, миллатимиз тарихида бу сулоланинг алоҳида ўз ўрни бор.

X асрнинг охирларида Еттисувда Қорахонийлар давлати ташкил топди. Мавжуд маълумотларга кўра, Буғрохон унвонли, Абдулкарим (955—956 йилларда вафот этган) исмли ёки арабча-туркча Хорун ибн Мусо ибн Сатук номи билан машҳур бўлган шахс сулолага асос солган. [29; б.371.]

Қорахонийлар давлати Сулаймон Арслонхон-Сулаймон бинни Юсуф (1032-1040 йй) замонасида иккига бўлингач, Фарғона водийси, Қошғар ҳамда Хўтан вилоятлари, Еттисув, Или водийси Шарқий Қорахонийлар давлати, деб аталиб, Боласоғундан бошқарилган[24; б. 4,54.]. Пойтахт Самарқанд саналган Ғарбий Қорахонийлар тасарруфига Мовароуннаҳр ва Хуросонинг бир қисми қараган.

XII аср бошларига келиб, Шарқий Туркистон, Еттисув, Мовароуннаҳрни ўз ичига олган улкан Қорахонийлар салтанатига шарқдан кўчманчи Қорахитойлар бостириб кира бошлади. Улар қарийб 40 минг чодирдан, яъни 150—200 минг кишидан иборат эди. Дастлаб, улар Еттисув ҳудудидаги Қорахонийлар пойтахти бўлган Боласоғунни эгаллаб, ўзларига пойтахт қилиб оладилар. Шу ердан Қорахитойлар гўрхони Фарғона ва Мовароуннаҳрга ҳужум қилиб, 1137 йили Хўжанд ёнида султон Санжарнинг энг яқин қариндоши — Самарқанддаги Қорахонийлар хони Маҳмудни катта мағлубиятга учратди [13; с.245.]. Бу катта

мағлубият бўлса-да, аммо Қорахитойлар мамлакат ичкарисига бостириб кирмадилар. Улар ўлпон олиш билан чекланиб, ўз юртларига қайтиб кетдилар. Бироқ, сулҳ узоқ давом этмади. 1141 йилда Қорахитойлар яна Мовароуннаҳрга бостириб кирдилар. Бу сафар Султон Санжарнинг ўзи Қорахонийлар давлатининг ҳимояси учун отланди. Бироқ, Самарқанд яқинидаги Катвон дашидаги жанг Салжуқий ва Қорахоний қўшинларининг Қорахитойлардан тўлиқ мағлубияти билан тугалланди. Шу тариқа бутун Мовароуннаҳр, Фарғона ва Шарқий Туркистон Қорахитойлар давлатига қарам бўлиб қолди [29; б.401.]. Бу қарамлик 1212 йил Хоразмшоҳ Алоуддин Муҳаммад томонидан Тароз жангида Қорахитойларнинг мағлуб этилишигача давом этди.

Рашиддин Фазлуллоҳнинг маълумотларига кўра, Хоразмшоҳлар, Алоуддин Муҳаммадга қадар Қорахитойларга йилига 3 000 динор ҳажмида ўлпон тўлаб келганлар. Бу борада аввалги ўтган султонлар ўз ворисларига Қорахитойлар билан тортишмаслик, белгиланган тўловларни вақтида етказиб беришни васият қилиб қолдирганлар. Қорахитойлар ортида муғул, найман ва бошқа жангари туркий халқлар бўлиб, Мовароуннаҳр ўлкасини уларнинг тажоввузидан ҳимоя қилиб туриш учун бу зўр омил бўлиб хизмат қилар эди. Бироқ, вақт ўтиб, султон Муҳаммад Хоразмшоҳнинг қудрати юксалиб, Ғурийлар ва Ғазна султонлари маҳв этгач, Хуросон, Ироқ ҳамда Туркистоннинг бир қисми унга бўйсунгач, у юқоридаги келишувдаги тўловларни тўлашдан бош тортиб, гўрхонга қарши юриш қилиш учун иттифоқчилари билан бирга қўшин тўплай бошлади [23; с.181.].

Шундан сўнг, Қорахитойлар қўл остида бўлган ерларни мусулмон ҳукмдор қўл остига қайтариш мақсадида Муҳаммад Хоразмшоҳ 607 йил Рабиъ ул-аввал ойида (1210 йилнинг август-сентябрь ойлари) Банокат (Шоҳрухия-Т.Қ.) яқинидаги кўприкдан катта қўшин билан ўтиб, Тарозга етиб борди. У ерда у Қорахитойлар билан жанг қилиб, лашкарбошиси Таянғуни асир олди. Бироқ, ҳали душман тўлиқ маҳв этилмаган эди.

Шу пайтда, Шарқ томонда яна бир кучайиб келаётган ҳукмдор найманлар сардори Кучлукнинг элчилари Султон Муҳаммадга келиб, Қорахитойларга биргаликда ҳужум қилиш ҳақида Султон билан келишиш учун таклиф билан келадилар. Бу келишувнинг шартларига кўра, шарқдан Кучлук, ғарбдан Хоразмшоҳ Гўрхонга ҳужум қилиши, агар душманни Султон Муҳаммад аввалроқ мағлуб этса, Хўтан ва Кошғаргача Султонники бўлиши, агарда бу ишни Кучлук аввалроқ бажарса, Қорахитойлар тасарруфида бўлган Банокат (Фанокат) ирмоғигача бўлган ерлар унга берилишига келишилади [10; б. 326, 331.]. Бу ўринда Кучлук илдамроқ ҳаракат қилиб, гўрхонни мағлуб этди ва унинг ихтиёрида бўлган Хўтан, Олмалиқ ва Кошғардан то Банокатгача бўлган ерларни тасарруфига киритди [20; б.376.].

Шундай қилиб, аввалига Қорахитойлар тасарруфида бўлган Шарқий Қорахонийлар эндиликда Кучлук бошчилик қилаётган Найманлар давлатига тобеъ бўлиб қолди. Кучлук бу ўлкалардаги мусулмонларга ниҳоятда диний тақиқлар қўллаб, чексиз зулм ўтказди. Бу зулмлар Чингизхон қўшинлари томонидан 1219 йилнинг бошларида Кучлук давлати йўқ қилингунга қадар давом этди.

Чингизхон ўзининг ҳужумкорлик стратегиясига мувофиқ, Жебе нўёнга Шарқий Туркистон ва Еттисувга катта отряд билан бостириб бориб, Кучлук давлатини йўқ қилишни буюрди. Жебе бу топшириқни 1219 йилда бажарди. Шундай қилиб, Чингизхоннинг Сирдарё қирғоқларига, ҳамда Мовароуннаҳр ва Хоразмга бориши учун йўл очилди [29; б.428.].

1218 йилнинг охири 1219 йилнинг бошларида Жэбэ Нўён бошлиқ муғул қўшини Кучлукни тор-мор этиб, уни қатл этгач, Шарқий Туркистон ва Фарғона водийси Чингизхон давлати таркибига киритилди. “Шундан сўнг, Хўтан ва Кошғар вилоятлари Сайҳун, деб аталувчи Фанокат дарёсигача бўлган ҳамда яна бир қанча жойлар Чингизхон давлатига киритилди” [26; б.171.]. Бу ҳақида Мирзо Улуғбек ҳам “Хўтан ва Кошғар шаҳарлари Оби фасокатки, уни Сайҳун, дерлар, Соҳибқирони аъзам Чингизхони муаззам мулкларига қўшиб олинди” [21; б.132.]. Эътибор берилса, Шарқий Туркистондан ҳозирги Сирдарё бўйларидаги Хўжанд ва Бинокатгача бўлган ерларни босиб эмас, қўшиб олинди, дейилмоқда.

Қорахитойлар салтанати харобалари ўрнида Кучлук Хўтан, Ёркенд, Кошғар, Еттисув, Фарғонадан иборат унчалик мустаҳкам бўлмаган давлат тузган эди. Ғарбга юриш бошлаган Чингизхон қўшинларининг динга, хусусан, Ислом динига эътиқоди учун таъқибга ва камситишларга йўл қўймаётганлигини кўрган мусулмонлар, тезда муғуллар томонига ўтиб, Кучлукка ҳеч қандай ёрдам кўрсатмадилар [16; с.307.]. Аксинча, маҳаллий аҳоли бу имкониятдан золимлар ўлкадан қувиб чиқариш учун фойдаландилар.

Алоуддин Атомалик Жувайний “Тарихи жаҳонгушо” асарида 1212 йил Ғарбий Қорахонийларнинг сўнги хони Усмон ибн Иброҳим Хоразмшоҳ Алоуддин Муҳаммад томонидан қатл қилингач, авваллари Қорахитойларга қарашли бўлган ерларни эгаллашда ташаббусни қўлга киритиш учун “Фарғона ва Туркистон амирларига элчилар юбориб, уларни амри остига киришга даъват қилди. Мудофаа учун бир ҳарбий қисмни Сифижоб (Исфижоб)га бир ҳарбий қисмни қайта кучлантириб ҳужумга ўтмаслиги учун Гурхон устига юборди” [10; б. 326, 331, 363.], деб маълумотлар берган. Аммо, бирон бир манбада Фарғона ва Туркистон амирларининг унинг амри итоатига кирганликлари ҳақида маълумот йўқ. Шу билан бирга, агар бу ҳудудлар аввалдан Хоразмшоҳлар давлати таркибига кирганида эди, у ҳолда юқоридаги мазмундаги нома билан Хоразмшоҳнинг ўша ерларнинг амирларига мурожаат қилишига хожат қолмаган

бўлар эди. Бу эса, Хўжанддан шарқдаги ерлар Хоразмшоҳлар тасарруфида бўлмаганлигидан дололат бериб турибди.

Айрим олимлар Фарғона водийси ҳам Хоразм давлати таркибида бўлганлигини исботлаш учун Ибн ал Асирнинг “...хоразмшоҳ Шош, Фарғона, Исфижоб, Косон ва унинг атрофидаги бошқа шаҳарлар аҳолисига мусулмонлар яшайдиган ҳудудларга кўчиб ўтишни буюриб, сўнгра, улардан татарлар (найманлар-Т.Қ.) фойдалана олмаслиги учун бузиб ташлашни буюрди” [13; с.367.], деган жумлаларини асос қилиб келтиришга ҳаракат қилишади. Аммо, мазкур даврдаги бирон бир манбада бу иш содир этилганлиги баён этилган эмас. Тарихчи Шиҳобиддин ан-Насавий ҳам Ибн ал-Асирнинг меҳнатларини юқори баҳолагани ҳолда: “...Шу ўринда бир нарсани айтиш керакки, у (Ибн ал-Асир) асарида баъзи ўринларда ҳақиқатдан бир оз чекинган бўлса ҳам, энг муҳим ва асосий воқеалардан бирортасини эътибордан четда қолдирмаган. Шундан кейин ўзимча бундай хулосага келдим: ҳақиқатан ҳам, аш-Шом мамлакатида яшайдиган одамнинг Ҳиндистоннинг энг узоқ чеккаларида, Хитойнинг инсон қадами етиши қийин бўлган жойларида юз бераётган воқеаларни бировларнинг ҳикоялари орқали ёзиб олишга қарор қилиши ғаройиб иш эмасми!” [27; б.19.], дейди.

Шунингдек, асарни таржима қилиб, нашрга тайёрлаган шарқшунос олим Шамсиддин Камолиддин ҳам асар баъзи ўринларда ноаниқлик ва хатоликлардан ҳоли эмаслигини таъкидлаб ўтган эди [13; с.16.].

Туркистоннинг ўрта асарлар тарихи юзасидан талайгина ишларни амалга оширган академик В.В.Бартольд қадимги қўлёзмаларни таҳлил қилиш жараёнида Шарқий Қорахонийлар давлати ҳудудлари (Фарғона водийси, Еттисув ва Қошғар) муғул давлати таркибига деярли қон тўкмасдан киритилганлигини ёзган эди. Бунинг ўзига хос сабаблари бўлиб, бу бевосита қорахитойлар давлатининг тугатилиши ва унга қарам бўлган ўлкалар - Шарқий Туркистон, Еттисув, Фарғона водийсининг қисқа вақт оралиғида найманлар сардори Кучлук давлати таркибида бўлганлиги эди. Бу ерларда Кучлук диний зулмни ўта кучайтириб юборгач, аҳолининг норозилиги ҳаддан зиёда ошди. Айни шу даврда муғуллар томонидан найманларнинг тор-мор этилиши, уларнинг юқоридаги ўлкаларга кириб келиши ва маҳаллий мусулмон эътиқодидаги аҳолини уларнинг зулмидан озод қилиши, ислом динига эътиқод қилишга монеълик қилмаганлиги албатта ижобий ҳодиса эди.

Ушбу жараённи батафсил ўрганган Мирзо Муҳаммад Ҳайдар ҳам бундай деб ёзган эди: “...Кучлук Қашғар и Хўтанни босиб олгач, насронийликдан будпарастликка қайтди. Аҳолини эса, ўзининг асл дини (Ислом динидан-Т.Қ.)дан қайтиб, оташпарастлар динига, ҳақиқатнинг ёркин йўлини иймонсизлик ва зулмат даҳшатига, раҳмдил Роббига бўйсунишни эса, лаънатланган иблисга

бўйсунишга ўзгартирди. Инсонлар ё унинг динига ўтишга ёки хитойча уст-бош кийишга мажбур этилдилар. Азон, ибодатлар тўхтатилиб, тақиқлаб қўйилди" [20; с.365.].

Академик В.Бартольднинг ёзишича, Боласоғунга бўйсунувчи ва гурхоннинг яқин кишиси бўлган Косон ёки Ахсикентнинг ҳокими Исмоил исмли шахс Фарғона водийсини найманлар зулмидан озод қилаётган муғул қўшинига шаҳар оқсоқоллари билан биргаликда пешвоз чиқиб, итоат изҳор қилган. Бу ҳақида Жэбэ Чингизхонга маълум қилгач, хоқоннинг буйруғи билан Исмоил, Жэбэ нўён қўшинининг авангардига келиб қўшилди. "Чингизхон ўрнатган қатъий тартиб-интизомга мувофиқ, Жэбэ бошлиқ қўшин, Муҳаммад Хоразмшоҳ билан қиёслаганда "ҳалоскор" вазифасини ўтай олди", дейди академик В.Бартольд [5; с. 469-470.]. Жувайнинийнинг маълумотларига кўра, қашғарликлар бу ерларга муғулларнинг кириб келишига "Аллоҳнинг раҳмати", деб қараганлар. "...Муғуллар Қашғарга киргач, азон, такбир ва намозни эркин қилдилар (яъни, рухсат бердилар-Т.Қ.). Ҳар бир одам ўз дини ва урф-одати талабларини бемалол эркин тарзда қила олишлари мумкинлиги ҳақида жарчига айттирдилар. Биз ўша қавмнинг борлигини Тангри раҳматларидан бири, деб ҳисоблаймиз", деб ёзади Отамалик Жувайний [10; б. 124.].

Муғуллар маҳаллий тинч аҳолининг мол-мулкига тегмаган ҳолда жуда катта миқдордаги бойликларни қўлга киритдилар. Жэбе нўён эса, Чингизхонга туҳфа тариқасида минглаб отларни совға қилиш имкониятига эга бўлди. Исмоил бошчилигидаги Фарғона қўшини эса, мўғуллар билан биргаликда найманларга қарши юришларда иштирок этди [5; с.470.].

Шу билан бирга академик В.Бартольд янада аниқроқ қилиб Хоразмшоҳнинг бунга муносабатини қуйидагича: "...Қорахонийларнинг аввалги мулкларидан саналган Фарғона ва унинг шимоли ҳамда шарқидаги, шунингдек, Чирчиқ ва Арисдан бошланган тараққий этган вилоятларни Кучлукнинг фойдасига воз кечишга мажбур бўлди. Мусулмон тарихчилари эса (бу ерда Ибн ал-Асир назарда тутиляпти-Т.Қ.), бу ҳудудлар Кучлукка ўтиб кетмаслиги учун у ерларни хоразмшоҳ ўзи вайрон қилганлигини ёзадилар. Бироқ, 1221 йилда бу ерлардан ўтиб борган хитой тарихчиси Чан-Чунь ҳеч қанақа вайроналик излари йўқлигини ёзади", деб хулосалар берган эди [6; с. 139.].

Жувайний Кучлик қўл остидаги мусулмонларга нисбатан ўта бераҳмликлар қилганлигини ёзиб: "...Зўравонлик ва зулм билан Муҳаммад (с.а.в.) динига ишонганлар овозини ўчирди ва уларни ўз эътиқодига бўйсунишга имкон бермади", деган эди [10; б. 126.].

"...Муғул қўмондони диний эркинлик ҳимоячиси бўлиб майдонга чиқиб, ҳар бир инсон ўз ота-боболари динига эркин эътиқод қила олишлиги мумкинлигини маълум қилди. Шу боис, Еттисувнинг жануби, Фарғона ва Қошғар деярли қон

тўкилмасдан эгалланди. Кучлукка қарам ва итоатда бўлган мусулмонлар (улар орасида Фарғона ҳукмдори ҳам бор эди) муғуллар томонига ўтдилар” [6; с. 141.], деб тадқиқотларига хулоса қилган В.Бартольднинг фикрларини XX асрнинг таниқли тарихчиларидан А.Бернштам ҳам тасдиқлайди [8; с. 40.].

Шу ўринда замонамиздаги айрим тарихчилар Ибн ал Асирнинг Чингизхоннинг Мовароуннаҳрга босқини ҳақидаги “Чингизхон одамларини бир неча гуруҳга ажратди. Шулардан бир гуруҳини у Фарғонани эгаллаш учун юборди” [13; с. 360.], деган жумлаларини муғулларнинг Фарғонага юришлари учун асос сифатида келтирадилар. Аммо, биринчидан, бирон бир манба бу юриш ҳақида лом-мим дейилмаган. Иккинчидан, кўплаб ўрта аср географлари Хўжанднинг Фарғона минтақасига тааллуқли шаҳар сифатида таърифлаганлар [13; б. 30.: 15; б. 136.]. “Бобурнома”да “Хўжандни баъзи дохили Фарғона эмас дерлар”, деб муаллиф бу ерни баъзилар Фарғонага киритмаганлигидан ажабланганлигини ёзади [12; б. 11.]. Бундан Ибн ал Асир Фарғона, деганда Хўжандни назарда тутганлиги ойдинлашади, холос. Бу дегани, муғуллар Фарғона водийсига ҳужум қилди, дегани эмас. Балки, аксинча Хўжанд, гарчи, Фарғона шаҳарларидан бири саналсада, аммо сиёсий жиҳатдан Ғарбий Қорахонийлар давлати таркибида бўлган. Шу боис, муғулларнинг бу юришини, Ғарбий Қорахонийлар мулкини эгаллаган Хоразмшоҳларнинг шарқдаги чегара шаҳарларидан бири бўлган Хўжандга юриши сифатида тушуниш керак.

Тарихшуносликдаги яна бир муҳим масала, умуман Фарғона водийсини муғуллар босқинига учраган ёки учрамаганлиги масаласи ҳозиргача тарихий тадқиқот объекти бўлган эмас. Энг муҳими, Фарғона водийси умуман хоразмшоҳлар давлати таркибига кирмаган. Яъни, Фарғона Ғарбий Қорахонийлар мулки бўлиб, бу ер муғуллар давлати таркибига босиб эмас, юқоридаги сабабларга кўра, қўшиб олинган эди.

Ачинарлиси, XX асрнинг 60-йилларидан то бугунги кунгача бўлган деярли барча тарихий асарларда Фарғона водийси шаҳарларини Чингизхон қўшинлари босиб олиб, вайрон қилганлиги ҳақидаги асосиз маълумотлар бериб келинмоқда. Буни биргина Ахсикент мисолида таҳлил қилинса, масалага анча ойдинлик киритилади.

Яқин йилларгача Ахсикент тарихини фақат археологлар берган маълумотлар асосидагина ёритиб келинди. Тарихий манбалардан бехабарлик ёки нотўғри талқин қилиш ёхуд манбаларни менсимаслик охир оқибатда шаҳар тарихини тахминлар асосида ёритилишининг сабабларидан бўлди.

Сўнгги пайтларда Ахсикентни ўрганиш ҳукумат даражасига кўтарилиши оқибатида, шаҳар тарихини манбашунослик ва тарихшунослик нуқтаи назаридан таҳлил қилиниши, воқеалар жараёни мутлақо бошқача кечганлигини исботлади. Яъни, Фарғона водийси, хусусан, Ахсикент XX асрнинг 50-йилларидан

эътиборан таъкидлаб келинганидек, мўғуллар босқини даврида эмас, 1621 йилдаги зилзила оқибатида вайронага айланганлиги илмий жиҳатдан қайта исботланди. Нима сабабдан қайта исботланди? Чунки, бу янги илмий кашфиёт эмас эди. Ахсикентнинг мўғуллар вайрон қилганлиги ҳақидаги чўпчакни биринчи бўлиб, Наманган ўлкашунослик музейи ходими бўлган Ю. Г. Чуланов ўтган асрнинг 50-йиллари охирларида фанга олиб кириб, **“илмий кашфиёт”** қилган эди. [25; с. 197-206.].

Воқеалар жараёнини манбавий асосда мантиқий таҳлил қилиш эса кун тартибидан олиб ташланди. Ҳатто аввалги мақолаларида Ахсикентни муғуллар вайрон қилганлиги тўғрисида ҳеч нарса демаган олимлар ҳам [3; с. 54, 58, 59.: 31; б.17-19.], Ю.Г.Чуланов мақоласидан кейин шаҳарни Чингизхон қўшинлари яксон қилганлиги сабабли темурийлар “Янги Ахсикент” шаҳрини қуришга мажбур бўлганлигини ёза бошладилар [2; с. 80-81.: 4; б.7-8.: 30; б. 8-12.]. Муғуллар босқини ҳақида уйдирмалар сохта тарих, сохта зиёратгоҳларнинг яратилишига сабаб бўлди.

Ю.Г.Чулановнинг тарих фанига **“инновацион”** ёндошувидан кейин, нафақат Ахсикент, умуман, водийнинг деярли барча қадимий шаҳарларини 1219-1221 йиллар оралиғида муғуллар вайрон қилиб, кулини кўкка совурганлиги эҳтиросlар билан ёзилди. Буни Андижон, Қўқон, Қува, Косонсой, Марғилон шаҳарлари тарихига бағишланган асарлар мисолида кўриш мумкин. Бу ўринда Ю.Г.Чуланов ғояларига асосланиб китоб ва мақолалар ёзган муаллифларини бирма-бир санаб ўтишни лозим топмадик. Зотан, асосий мақсад ва вазифа танқид қилиш эмас, балки, тарихий ҳақиқатни рўёбга чиқаришдир.

Фақатгина кам сонли рисола ва мақолалардагина Ахсикентда ҳаёт 1621 йилгача давом этиб, шаҳар зилзила сабабли вайрон бўлганлиги, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам тасвирлаган XV-XVI аср Ахси қалъаси билан IX-XII асрлардаги Ахсикент шаҳри бир макон эканлигига эътибор қаратилди холос [22; с. 200, 495.: 11; б. 187-190.]. Натижа эса, Ахсикент тарихи деганда, фақатгина Ю.Г.Чуланов фикрини давом эттирган, тахмин билан унинг тарихини битган совет даври археологларининг ишларигина тушунилишига олиб келди. Ваҳоланки, Ахсикент тарихи аввало, бу манбашунослик асосида, яъни, олимлар қолдирган ёзма манбалар асосида ўрганилиши керак эди. Моддий-ашёвий манбалар эса, ёзма манбаларни тўлдириш учун ёки умуман ёзма манбалар бўлмаган қадимги даврлар учун хизмат қилмоғи лозим эди. Бу борада бунинг аксига иш юритилди.

Бунинг оқибатида Ахсикентнинг 400 йиллик тарихи йўққа чиқарилди. Ахсикатий олимларнинг номлари унутилди. Ваҳоланки, нафақат Ахсикент, балки умуман Фарғона водийсининг мўғуллар ҳужумига учраганлиги ҳақида бирон бир манбада маълумот берилмаганлигини тахминларга таяниб тарих

битувчи археологлар ўйлаб ҳам кўрмадилар. Ахсикентни вайрон қилган мўғуллар водийнинг бошқа шаҳарларини ҳам шу тарзда вайрон қилганми? Ёки уларни тинч йўл билан босиб олганми? Аслида Ахсикентни ҳозирги хароба ҳолатга келишини Чингизхон босқини билан боғловчи археологлар, бу саволга ҳам жавоб беришлари керак эди.

Ҳолбуки, “Бобурнома”нинг ўзида Бобур Мирзо отаси Умаршайх Мирзони машҳур шоир Асириддин Ахсикатий яшаб ўтган шаҳарни пойтахт қилганлигини ёзганлигини [12; б. 8.], 1332 йилда эса тарихчи Абул Фидо томонидан ёзилган “Тақвим ал-Булдон” асарида Ахсикатни Фарғонанинг қасабаси - қадимий пойтахти сифатида таърифлаганлигини [1; б. 500-502.], XIII ўрталарида эса бу ердан мусулмон оламида машҳур бўлган Ахсикатий тахаллусли фақиҳ олимлар етишиб чиққанлигини ҳисобини ҳам олмадилар.

Зеро, Асириддин Ахсикатий (1108-1196 йй.) XII асрда яшаб ўтган бўлиб, мўғуллар босқини эса, XIII аср бошларида содир бўлган эди. Бобур Мирзо эътироф этганидек, айнан ўша XII асрда Асириддин Ахсикатий яшаб ўтган шаҳарни унинг отаси (XV аср-Т.Қ.) пойтахт қилганлигини ёзган бўлса, қандай қилиб уни муғуллар вайрон қилган бўлади! Аслида манбадаги шу фикрнинг ўзиёқ муғул босқини ҳақидаги барча тахминларни йўққа чиқарар эди.

Ахир, темурийлар “Янги Ахси”ни қуриши учун аввало, қадимий Ахсикат вайрон этилган бўлиши керак эмасмиди!? Аммо манбалар уни темурийлар давригача ҳам вайрон этилмаганлигидан гувоҳлик бериб турибдику!

Асоси йўқ тахминлардан кейин **“Темурийлар даври Ахсикенти”**, деган сохта атама пайдо бўлди. Ачинарлиси, шунинг ортидан темурий Умаршайх Мирзо ҳозирги ёдгорлик ўрнида бўлган қадимий Ахсикент шаҳрини эмас, қандайдир утопик, археологларнинг тахминларга кўра, “Янги Ахси” шаҳрини қуриб, ўша ерни пойтахт қилганлиги тўқиб чиқарилди. Мана шу фикрнинг ўзи Шарқий қорахонийлар давлати, умуман Фарғона водийсининг XII-XIII асрлар тарихини мутлақо нотўғри талқинини юзага келтириб, сохта тарих яратилишига асос бўлади. Мазкур тахмин асосида тўқилган тарихни асослаш учун кўпдан кўп ёлғонлар тўқилди.

Кейинчалик бу ишга ёзувчи, публицист, блогер, санъаткор ва ҳатто диний уламолар ҳам аралашиб, масалани умуман чалкаштириб юбордилар. Тўрақўрғон туманининг ҳозирги Ахси қишлоғи ўрнида “темурийлар даври Ахсикенти” бўлган, дея, **“Ахси саййидлари музейи”** бунёд этилди. Аммо бирон бир манбада мазкур қишлоқ ўрнида темурийлар шаҳар қурганлиги ва бironта машҳур саййидзода ўтганлиги баён этилган эмас. Ҳозирда Ахси қишлоғида, яъни, “темурийлар даври Ахсикенти”да вафот этганлиги иддао қилинаётган Абулмаонийхон (Эшон Абулмаъонихўжа)ни эса, бу қишлоққа умуман алоқаси йўқ. Аввало, у зотнинг исмлари Абулмаонийхон эмас, Эшон

Абулмаъонихўжадир. Бу ҳақда Мақсуд ибн Носириддин Бухорийнинг “*Равойиҳ ул-қудс*” (Хушбуй ва муқаддас ҳидлар) номли, Мажзуб Намангонийнинг эса, “Тазкират ул авлиё” асарларида муфассал маълумотлар берилган. Ачинарлиси, у кишининг қабрлари Ахси қишлоғида бўлиши учун бу қишлоқда Темурийлар “Янги Ахси”, деган шаҳарни қурган бўлишлари керак. Чунки, манбаларда у кишини Ахсикентда вафот этган, дейилган. Таассуфки, темурийлар ҳеч қандай “Янги Ахси” шаҳрини қурган эмас. Шунинг учун ҳам ўзини Эшон Абулмаъонийхўжа авлоди, деб даъво қилаётган ўша ердаги айрим шахслар, ижтимоий тармоқлар орқали тарихда темурийлар Ахси қишлоғи ўрнида афсонавий “Янги Ахси”, деган шаҳарни қурганлигини зўр бериб, тарғиб қилмоқдалар. “Янглиш фикрлар доимо ўзини-ўзи инкор этади”, дейди К.Гельвеций. Аммо, ўйламайдиларки, ушбу утопик шаҳар қурилиши учун аввало, Эски Ахси темурийларгача бўлган даврда муғуллар босқини сабабли, вайрон этилган бўлиши керак. Минг афсуски, ундай эмас. Фарғона водийси, хусусан, Ахсикент мўғуллар давлати таркибига босиб эмас, қўшиб олинган.

Манбалар шаҳарни Чингизхон қўшинлари эмас, 1621 йилги даҳшатли зилзила оқибатида вайрон бўлганлигини тўлиқ тасдиқлаб турган бўлса-да, биз ўз тадқиқотларимизда ёрдамчи тарих фанларининг, шунингдек, геология, гидрогеология, ирригация, кадастр, сейсмология соҳаси мутахассисларининг илмий хулосаларидан ҳам фойдаландик. Зеро, “Ҳақиқий билимнинг манбаси фактлардадир”, деган эди француз олими Буаст.

Аввало, Ю. Г. Чулановгача Ахсикентни ўрганган олимларнинг биронтаси “Темурийлар даври Ахсикенти”, деб аталган янги бир шаҳар қурганлигини тасдиқламаганлар. Ҳатто археолог Инқилоб Ахроров ҳам Ю. Г. Чуланов “Янги Ахси” тўғрисидаги ғояни ўртага ташлагунга қадар, бирон жойда бу ҳақда ёзган ҳам эмас, бунинг даъвосини ҳам қилмаган. Аксинча, унгача бўлган даврда у ҳам темурийлар ҳозирги Эски Ахси, деб аталувчи ёдгорликнинг ўрнида мавжуд бўлган шаҳарни пойтахт қилганликларини ёзган эди.

Исҳоқхон Ибрат Эски ва Янги Ахси атамалари темурийлар даврида мавжуд бўлмаганлигини, Ахсикент зилзиласидан кейин пайдо бўлганлигини ёзиб қолдирган. Яъни, 1621 йилги зилзиладан омон қолган кишилар шимолий томонларга кўчиб бориб ўрнашиб, янги қишлоқлар бунёд этганликларини ва ўша қишлоқлар бир сўз билан “Янги Ахси”, харобазорга айланган шаҳар ўрни эса, “Эски Ахси”, деб аталишини ёзиб қолдирган. Шунингдек, XIX аср охирларидан эса, маъмурий тузилишга кўра, Ахси қишлоғидан Шаҳанд қишлоғигача бўлган қишлоқлар “Ахси-Шаҳанд” волостига бирлаштирилиб, бир сўз билан Янги Ахси тушунчасини беришини ҳам кўрсатиб ўтган [17.].

Ваҳоланки, айнан “Бобурнома”даги фикрларни кейинги давр тарихчилари ҳам маъқуллаб ёзиб кетган эдилар. Галдаги вазифа, ўша мўътабар манбалардаги

фикрларни ҳам албатта инобатга олиш эди, холос. Масалан, ҳатто XVII юз йилликнинг машҳур тарихчи олими Маҳмуд ибн Вали ҳам ўз асарида тасдиқлаб: “...Ахси - Фарғонанинг машҳур шаҳарларидан бири бўлиб, ушбу ўлкадаги ажойиб масканлардандир. Мовароуннаҳрдаги кўплаб шайх ва уламолар шу заминдан етишиб чиққандирлар. Жумладан, шоир Асириддин Ахсикатий ҳам айнан шу шаҳардандир” [18; с. 15-17.], деб ёзади. XVII асрдаги Ахси шаҳрини таърифлаётган олим, XII асрда яшаб ўтган машҳур Асириддин Асикатийни ҳам айнан шу шаҳарда туғилиб, ўсганлигини ёзмоқда. Шунинг ўзиёқ бу ерни муғул вайрон қилмаганлигини, Асириддин туғилган шаҳар айни XVII асрда ҳам мавжуд бўлганлигини, ҳеч қанақа афсонавий “Янги Ахсикент”, деган шаҳар қурилмаганлигини исботлаб турибди. Агар қадимги Ахсини муғул вайрон қилгану, темурийлар бошқа “Янги Ахси”, деган шаҳар қурган бўлганларида эди, буни Иккинчи ренессанснинг таниқли олими Маҳмуд бин Вали “Асириддин Ахсикатий ҳам айнан шу шаҳардандир”, деб ёзмаган, темурийларнинг эса, “Янги Ахсикент”, деган шаҳар қурганлигини алоҳида таъкидлаб ўтган бўлар эди. Таажжубки, ундай эмас.

Ахсикентни муғул вайрон қилди, дейиш билан Ватан тарихшунослигида жуда катта қўпол хато ва чалкашликлар юзага келади. Аввало, XIII аср бошларида Марказий Осиё минтақасидаги геосиёсий вазият, найманлар давлатининг Фарғона водийси ва Қошғар аҳолисига нисбатан юритган мустамлакачилик сиёсати, ўтказган зулмлари унутилади. Қолаверса, Ахсикент зилзиласида оламдан ўтган инсонлар хотираси эсдан чиқарилади.

Гарчи, 1212 йил Ғарбий Қорахонийлар давлати қулатилган бўлсада, аммо, Шарқий Қорахонийлар давлати муғуллар даврида ҳам мавжуд бўлганлигини, хитой манбаларида, академиклар В.Бартольд ва К.Шониёзовлар ўз асарларида ёзиб қолдирганлар. Академик Карим Шониёзов ўз асарида Мункехон (1251-1259 йй) Арслонхон қарлуқнинг ўғлини Ўзган давлатига ва Фарғонага ҳукмрон қилиб тайинлаганлигини ёзган. Шу билан бирга олим Фарғона давлати XIII асрнинг 60-70 йилларигача ҳукм суриб, бироқ, Қорахонийларнинг бу давлати қайси даргача ўз мустақиллигини сақлаб қолганлиги аниқ эмаслигини ёзган эди [28; б. 134.].

“Кўпгина буюк ҳақиқатлар аввалига масхараланган”, деган эди ирландиялик ёзувчи Бернард Шоу. Биз бундан 5-6 йил аввал Ахсикент тарихидаги афсонавий “муғул босқини” масаласини кўтарганимизда айрим кибру ҳавога берилган, тахминшунос олимлар бунинг учун устимиз кулишган ва бу “кулги”ларини матбуот орқали эълон ҳам қилишган эди. Аммо, бизнинг бу борада муттасил эълон қилаётган янгидан янги илмий асосларимиздан сўнг, улар ҳам Ахсикент муғул босқинида эмас, 1621 йилги зилзилада вайрон бўлганлигини ёзмоқдлар. Ўзлари ўйлаб топган Ахсикентнинг “Муғул вайрон қилганлиги”

ҳақидаги саводсизларча ёзган мақола ва чиқишлари учун Ватан аҳлларидан узр ҳам сўрамайдилар.

Ахсикент ёки умуман Фарғона водийсини мўғуллар томонидан босиб олинганлиги масаласига келсак, яна бир талай саволларга жавоб беришга тўғри келади. Мўғул қўшини бу ерларни қачон босиб олган? Бу қўшиннинг лашкарбошилари кимлар эди? Жанглар қаерда ва қачон бўлган? Шу даврда уларга қарши курашган Ахсикент ҳокими ёки умуман Фарғона ҳукмдорлари ёки қўшин бошлиғи-лашкарбошилари кимлар эди? Энг асосийси, бу маълумот қайси ишончли манбадан олинмоқда? Ахсикент ва Фарғонанинг бошқа шаҳарлари мўғуллар босқини даврида вайрон этилган, дейишдан аввал юқоридаги саволларга жавоб беришга тўғри келади.

Табиийки бу саволларнинг барчаси жавобсиз қолади. Умуман, мўғуллар босқини Фарғона водийсида қай даражада кечганлиги, улар Фарғонани қай тариқа босиб олганликлари, Фарғона Қорахонийларининг муғул давлати таркибидаги фаолияти, уларнинг кейинги тақдири, нима сабабдан бу ердаги Қорахонийлар сулоласининг тугатилиши ва давлатнинг Чиғатой улусининг таркибий қисмига айлантирилиши масаласи алоҳида мавзу бўлганлиги боис, ушбу масалани кейинги тадқиқотларимизда юқоридаги манбаларга таянган ҳолда баён этамиз. Шу ва шунга яқин барча масалаларга биз “Шарқий Қорахонийлар давлати тарихи” номли монографиямизда тўхталиб, баён қиламиз.

Барча чигаллик ва англашилмовчиликлар тарихнависликда ҳали ҳануз совет даври усубияти ва андозаларидан воз кечилмаётганидадир. Аммо, бу борада айрим янгича, ҳаққонийлик, тарихийлик тамойиллари асосида яртилаётган асарлар ҳам аста-секинлик билан бўлсада, дунё юзини кўрмоқда.

Масалан, шундай нашрлар сирасига Жасур Латипов ва Сардор Кенжаевларнинг “Елюй Чуцай: Мўғуллар империясининг буюк мутафаккири” номли рисоласини киритиш мумкин. “Чингизхон толерант дунёқарашга эга ҳукмдор бўлиб, - дейилади, рисолада - ҳеч бир диннинг мутлақ кучли позицияга эга бўлишига йўл қўймаган....Цзинь қўшини саркардаси Елюй Люгэ (1174-1220 йиларда яшаган) 1212 йилда 100 минг нафар хитанлар билан (бу статистикага тинч аҳоли вакиллари ҳам киради) Чингизхонга таслим бўлган [9; б. 9, 13.]. Бу ҳақда тарихчи Абулғозий Баҳодирхон ўзининг “Шажарайи турк” асарида қуйидагича маълумот беради: “Олтанхон Хонбаликдин отланатурғанда Қорахитойнинг сардорини андак гуноҳ учун ўлтуртуб кетиб эрди. Ул сабабдин Қорахитойнинг бир неча баҳодирлари Олтанхоннинг ўғлининг йилқи, қўй, тева, сиғирини қовуб, Чингизхоннинг чирикига қўшилди. Андин сўнг Қорахитойдин бир йигит хуруж қилиб, Хитойнинг баъзи вилоятларини олиб, Чингизхонға элчилар юбориб, оқибат ўзи халқи бирлан хони Кишваристоннинг хизматига бориб, иноёти подшоҳона ва марҳамати хисравонасиға махсус бўлди [7; б.58.].

Бу муғуллар барча мамлакатларни ҳам қилич ва қон билан бўйсундирмаганлигини, айрим мамлакатлар ўзига хос сабабларга кўра, тинч йўл билан империя таркибига киритилганлигини билдиради.

Юқоридаги муаллифлар таъкидлаганидек: “Мақсадимиз ушбу рисоламиз орқали Мўғуллар империяси, деганда бир гуруҳ ваҳшийлар жамоаси тушунилмаслигини, содда маъмурият ва қонун олдидаги тенглик принципларига асосланган, диний бағрикенглик хусусиятларини ижтимоий-сиёсий ҳаётида акс эттирган ушбу давлатга нисбатан жамиятимизда, илмий жамоатчилик фикрида шаклланган хулосаларнинг бироз нохолис эканлигини ҳамда тарихдаги жараёнларга бирор сиёсий, диний ёхуд миллий мафкуралар нуқтаи-назари асосида баҳо бермаслик лозимлигини кўрсатишдан иборатдир” [9; б.4.].

Шу боис, тахминларга таяниб тарих ёзишдан воз кечган ҳолда, манбаларни синчиклаб ўрганиб тарих битиш пайти етиб келганлигини англаш лозим.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Абул Фидо. Тақвим ал Булдон.-Байрут: Дорус саодат, 1840.
2. Ахраров И. Новые археологические материалы с городища Ахсикет XIV—XVI веков //Общественные науки в Узбекистане.-1969.-№ 8-9.
3. Ахроров И. Археологические исследования городища Ахсикент в 1960 году //Общественные науки в Узбекистане.-1962.-№8.
4. Ахроров И., Қосимов Й. Ахсикент тарихидан лавҳалар (1917 йилгача). Тошкент: Ўзбекистон, 1985.
5. Бартольд В. В. Сочинения. Том I.-Москва: Восточная литература, 1963.
6. Бартольд В. В. Сочинения. Том II. Часть I.-Москва: Восточная литература, 1963.
7. Баҳодирхон Абулғозий. Шажарайи турк /Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А. Аҳмедов. Т.: Чўлпон, 1992.
8. Бернштам А.Н. Древняя Фергана.-Ташкент: Издательство Академии Наук Уз ССР, 1951.
9. Жасур Латипов, Сардор Кенжаев. Елюй Чуцай: Мўғуллар империясининг буюк мутафаккири.-Бухоро: Камолот, 2022.
10. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи) /Масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. - Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015.
11. Зайниддинов Ҳ. Водий санами //Шарқ юлдузи, 1977.-№10.
12. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: Юлдузча, 1989.
13. Ибн ал Асир. Ал камил фит тарих (Польный свод истории).-Тошкент: Ўзбекистон, 2006.

14. Ибн Ҳавақал. Китоб сурат ал-ард.-Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011.

15. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик (Хуросон ва Мовароуннаҳр) Йўллар ва мамлакатлар китоби (Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р.Т.Худайберганов).-Тошкент: Фан, 2019.

16. История народов Узбекистана. Том 1. (С древнейших времен до начала XVI века.).-Ташкент: Издательство АН Уз ССР, 1960.

17. Исҳоқхон тўра Жунайдуллаев. Фарғона областидаги қадимги Ахси шаҳрининг тарихи //Туркистон вилоятининг газети, №48.-1913.-23 июнь.

18. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. (Перевод Б.А.Ахмедова).-Ташкент: Фан, 1977.

19. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарихи Рашиди.-Ташкент: Фан, 1996.

20. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий.-Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

21. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи.-Тошкент: Чўлпон, 1994.

22. Новый каталог сильных землетрясений на территории СССР с древнейших времен до 1975 года.–Москва: Наука, 1977.

23. Рашидаддин Фазлуллах. Сборник летописей (Джами` ат-таварих). I том. Книга вторая. Москва-Ленинград: Издательство АН СССР, 1952.

24. Ходжаев А., Турдиева Д. Қорахонийлар хоқонлиги тарихи Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида.-Тошкент: Фан зиёси, 2021.

25. Чуланов Ю.Г. Городище Ахсыкет //Советская археология, 1963.-№3.

26. Шарафуддин Али Яздий Зафарнома. I китоб.-Тошкент: Фан, 2022.

27. Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти.-Тошкент: Ёзувчи-Ўзбекистон, 1999.

28. Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар.-Тошкент: Шарқ, 1999.

29. Ўзбекистон СССР тарихи. Тўрт томлик. Т.I. – Тошкент: Фан, 1970.

30. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар (1917 йилгача). Тошкент: Фан, 1990.

31. Ғуломов Я., Аҳроров И. Ахсикент обидалари изидан //Фан ва Турмуш, №8.

YASA OF CHANGIZ KHAN

Nazifullah Kargar
Assistant Professor Dari Language and Literature Department,
Faculty of Literature and Humanity
Baghlan University, Baghlan, Afghanistan
Nazifullahkargar2014@gmail.com
Barakatullah Haykal Zada
Assistant Professor Uzbek Language and Literature Department,
Faculty of Literature and Humanity
Baghlan University, Baghlan, Afghanistan
haykalzadabarakatullah@gmali.com

Abstract: This article offers a roughly complete discussion of: previous Khorasan and the Afghanistan of present-day had come down the cruelty, and crucifixion of many commanders and presiders, one of them is changiz khan to have brought Afghanistan under his precept and Reign. This situation was an optimistic terrible and bloody one. Changiz khan has trodden his feet either on the page of the history of our country. It is the area where his gargantuan perfection was putting the people to the sword and killing civilians. He has come to Afghanistan and other territories. He brought on his illicit attack on our land/ Zone. It is absolutely bewildering that the people of Afghanistan had been looking for the mediation and was thirsty ever for standing alongside with the mediation; but this idea and prospection never turned into the reality. This mediation bringing was just like drawing a picture on the water. This land ever had the idea of peacekeeping but tragically not beheld it. Changiz and his army prosperously halted on Khorasan and pressurized to make afghans to acknowledge to him, concerning to their ideology and kept the attacks emanating.

It includes the key words: introduction, changiz khan's yasa, research methodology, findings, discussion, conclusion and encompasses the books that I have used as core references.

Key words: a short look on the life of Mughal, changiz khan, his yasa and endowments.

INTRODUCTION

Anyone who has carried through the cruelty, traced a special tactic for themselves. The subject, elected by me for my interrogation is about the changiz khan, who ruled himself in our land and did the cruelties in are never in a millions years admirable to humanity and under the very eyes of the humanical judgement. This was my view, what is yours?

Changiz khan concerning to his conquests is likewise to the Timor and askander and in putting the people to the death is identical to the Attila. Changiz in merits and behaviors is identical to Attila either, and in action how Attila said, ‘’I had the power over the creature of god, and where my horse has trodden its feet; the grass won’t be grown there over again.’’ Changiz has acted upon his quotation in the Asia. One of the example of his brutality is on Fatima Khorasan, was the mother of gugak khan; she had been wiped up excessively and thrown her into the water when chaghatai khan got sick and mujadidin didn’t treat him well so he had been shot and killed with his family. The matter is why changiz has moved on this regulation and what is the object of this law? The answer could be, that changiz khan had this anticipation of codifying this law just for setting his prehest prosperously in his family.

Literature Review

According to the abovesaid topic there is no information available in any articles, journals, books, internet websites, magazines and newspapers, the only information that I get from books is, that they recount changiz khan life was a lamenting one for the humanity and civilians. What I got is mostly from the books and alternative articles.

Materials and Methods

As far as the nature of this study concerns, qualitative research method suits best for this article. In analytic research, I could complete the major areas of this work by applying the principles of library research. In spite of the so-called data collection methods, I also interviewed the specialists and well-known about the life changiz khan. in this regard, Since the theme of the study is changiz khan’s yasa, so I would like to draw your attention to the principal discussion.

Discussion

As far as the fact concerns; that there is really utilizable and incredible enough information to look at the life of changiz khan, his yasa and rule of his life this matter is either superlly discussed in the books of ahmad punahi, zhubal, and ghubar. they are harmonized about my research to be done in a really systematic and typical way. To be honest in this format of the of the article, the writers such as above mentioned are the ones who are coincident about research of mine.

A short look on the life of Mughal

Modeling of tamocheen’s conference has handed in the alias of (changiz khan) to changiz khan which was empire in the overall Asia. This alias was set on him in 1306 AD and simultaneously another conference or assembly was compiled by qalamrukhan Mughal through the commanders of china, which was through the proposal of markiz (preceptor of china. The control of this tribe was in the (diwar bozarg). changiz khan has grabbed the conquests through apparent and religious credentials and believes of the people. Changiz khan had an unbeatable power which was admitted by his people and his other opponents on the overall the earth. With the whole reference and

preference, he had the super unbeatable potentiality on the insurgents, and controlling the tribe easily. Changiz khan had been presiding over those people, that they had been acceding no rules, tactics and tenets. These were the supine and stubborn people (changiz khan the powerful emperor on the whole universe, p. 120).

Mughal were the traders of skin and the hunters of the animals, the had been eating the meat and wearing the skinny the clothes. They weren't agricultural and farmers and living in a revolting way before changiz khan to turn out their chief.

His people were demarcated into alternative sections

1- Civilians, poor, and shepherds
2- The materialistic people
3- Those they had the one or two thousands farming animals

The justice of changiz khan

One of his commanders has been killing the people owning to the racist views.

He said, '' I broke into a home and wanted to kill the family at all. There was a baby, coming towards me and laughing at. I had a dagger in my hand that was put on his neck and wanted to cut his neck, but the baby conceived the dagger as the nipple of mom's boob. I really relented on him but emotion let me to leave him then I put him to the sword.

Changiz khan got extremely perplexed through story and order to suffocate that commander, by the way, it to be an enormous instance to the others. Judge Hameed Uddin pushing, that he was an epic member of the Khorasan, in the besets of Herat, he came under the slavery of changiz khan the compound was in consideration his experience, packed him off to the changiz khan. Changiz khan was posing from him about the prophets and sovereigns of Afghanistan/ Khorasan.

Changiz khan said, '' I paid back to Khwarazm shah, there could be no bagger retribution than that, he was a robber not a king, on the condition that he was a robber, so the people shouldn't have been put to the sword by him who were sent to him. Thus that compelled me to ask the declamation.

''Name of the exaltation remained from me or not?''

I said, ''assuming that changiz khan would give me the refugee I would respond him.''

Changiz told, '' I rid you off.''

I said, '' your name should have remained where the people remained alive, your army killed all the civilians. If your name remained alive, someone told that story to another person is whom?

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi ishlarining mavsumiyligi, agrotexnika tadbirlarni aniq belgilangan muddatlarda yetkizish lozimligi, har yilgi ob-havo sharoitining bir-biriga deyarlik o'xshamasligi, har bir mintaqaning tuproq, iqlim sharoitini bir-biridan keskin farq qilishi va boshqa ko'pdan-ko'p omillar dorivor o'simliklar o'stirish texnologiyasini ishlab chiqishda ko'plab noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Rastoropsha o'simligini ko'paytish va yetishtirish bo`yicha izlanishlar yetarli darajada o`rganilmagan. Shu sababli Rastoropsha o`simligining xosilini oshirishning ilmiy amaliy asoslarini o`rganish bo`yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi. Rastoropsha (Silybum marianum) o`simligi murakkabguldoshlar oilasiga (Silybum) turkumiga kiradi. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 1200 turi mavjud. (X.X. Xolmatov 577 tur) Ushbu turlarning ayni paytda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentyabrdagi 409-son "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi" Qonuni, O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil apreldagi PQ-2911-son "Respublika farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017 yil 7 noyabrdagi PF-5229-son "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20-apreldagi №32 sonli bayonnomasi, 16-bandini ijrosini ta'minlash maqsadi "Tibbiyot amaliyotiga joriy etilgan dorivor o'simliklarni madaniylashtirish va etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha maqsadli izlanishlar olib borilmoqda. Shuning barobarinda farmasevtika sanoati va aholini dorivor o'simlik xom ashyosiga bo'lgan talabini

qondirish va o‘simlik xom ashyosi asosida zamonaviy dori darmonlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2013- yil 5- avgustdagi 222 - sonli majlisi bayoning 3 - bandida ko‘rsatilgan - “Dorivor o‘simlikshunoslik va yangi dori vositalarini ishlab chiqarish korhonalarini tashkillashtirish uchun dorivor o‘simliklarni sanoat miqyosida plantatsiyalarini yaratish” va 2015 – yil 20 – yanvardagi № 5 – sonli “2015-2017 yillarda O‘rmon xo‘jaliklar tizimini rivojlantirish, dorivor va oziqabop o‘simlik xom ashyosini etishtirish tayyorlash va qayta ishlashni yanada kengaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi majlis bayonnomasining 1.12 bandi ijrosini taminlash bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqilgan.

TADQIQOT MAQSADI:

Ushbu o‘simlik o`zbekcha nomi olabuta bo`lib, murakkabguldoshlar oilasiga (Silybum) turkumiga kiradi. (Silybum) turkumi ikki turni o`z ichiga oladi. Ulardan biri dog`li olabuta (Silybum marianum) bo`lib, O`zbekiston hududining janubiy viloyatlarida o`sadi. Tibbiyotda uning urug`idan siqib olingan moyi, mevasidan tayyorlangan spirtli va suvli ekistraktlari choylari va sropi qo`llaniladi. O`simlikning yetilgan mevalari tibbiy maqsadda yig`iladi. (Rastoropsha) ni asosan jigar (Gepatit, sirroz, zaharlanish) o`t qopi kasalliklarida, o`t qopidagi tosh holatlarida, yo`tal va boshqa xastaliklarda qo`llaniladi. Respublika farmatsevtika sanoatining xom-ashyosiga bo‘lgan talabini ma’lum miqdorda qondiradi. SHuningdek, dorivor Rastoropsha o‘simligining ilmiy asoslangan ko’paytirish usullarini ishlab chiqish va sug‘orish va mineral oziqlantirish muddatlari va me’yorlari, urug‘ni yetilish muddatlari va hosildorligini aniqlash, o‘simlikning xom ashyosi ham oziq ovqat ham dorivor maxsulot sifatida boshqa sohalarda ham keng qo‘llanilishi ilmiy asoslanadi. Tajriba natijalarida turli preparatlar va sharbatlar ishlab chiqarishga joriy etiladi, bu ichki bozorimizni sifatli, to‘yimli sharbat mahsulotlari bilan boyitishga imkon beradi.

2022 yil aprel oyida Toshkent davlat agrar universiteti ochiq maydonda keng dala sharoitida Qushqo’nmas (Silybum Marianum) urug’lari ekildi. Uzunligi 60-150 sm bo’lgan bir yoki ikki yillik o’t- o’simlik. Poyasi tik, sodda yoki tarvaqaylab ketgan, mo’rt, yumshoq. Ba’zan barg bandlari juda katta (uzunligi 80 sm gacha, kengligi 30 sm), burishgan. Gullari naychali, ikki jinsli, qizg’ish (ba’zan pushti, binafsharang yoki oq) bo’lib, katta sharsimon savatchalarda joylashgan. Mevalari – teskari tuxumsimon tepasida tojsimon tukli urug’ savatchada zich bo’lib joylashgan, uzunligi 5-8 mm, kengligi 2-4 mm; mevaning tepasi qiyshiq kesmali, asosi yumaloq, yuzasi yaltiroq, silliq, ba’zan bo’ylama burishgan. Mevasi och jigarrangdan qora ranggacha bo’ladi, ko’pincha dog’simon, ba’zida moviy rangda bo’ladi. Hech qanday hidi yo’q, ta’mi achchiq. Butun yoz gullaydi. Urug‘ning sifatiga o‘tmishdoshidan ko‘ra, iqlim sharoitlari, jumladan, yog‘inlar issiqlik bilan ta’minlanishi ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Rastoropsha

uchun eng yaxshi o‘tmishdoshi bu- ekilmaga shudgor (dam berilgan yer) va kuzgi bug‘doydir. Ular o‘z navbatida, nafaqat, katta miqdordagi urug‘ hosilini olish, balki uning sifat ko‘rsatkichlarini oshishini ham ta’minlab beradi. Rastoropshani erta bahorda boshqa bahorgi ekinlar kabi ekish lozim. Urug‘larning unuvchanligi kamida 70-80 %, tozaligi jihatdan kamida 94- 96 % bo‘lib, ular birinchi yoki ikkinchi sinfga mos kelishlari kerak. Urug‘larga ekishdan oldin ishlov berish talab qilinmaydi. Ochiq grunt joylarda qator orasi 45-50 sm, ekish chuqurligi 2-4 sm, ekish me’yori gektariga 18- 20 kg, hamda o‘simliklar orasidagi masofa 22-25 sm bo‘lishi talab etiladi. birinchi guLlarI iyun oyida paydo bo‘la boshlasa, oxirgisi senyabr oylariga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shuningdek, birinchi mevalari avgust oyining boshlarida pishgan bo‘lsa, oxirlari oktyabr oyining o‘rtalarida pishadi. Rastoropsha urug‘laridan olingan eng yuqori hosildorlik qator orasi 30 sm va ekish meyori gektariga 333 ming donani tashkil qilgan variantda kuzatilgan bo‘lib, 1,68 t/ga ni tashkil qilgan hamda nazorat variantga nisbatan 0,58 t/ga yuqori bo‘lgan.

Xulosa. Sug’oriladigan maydonlarda o’stiriladigan dorivor o’simliklar yovvoyi holda o’sadigan dorivor o’simliklardan katta farq qiladi, ya’ni o’stiriladigan dorivor o’simlik mahsulotida begona o’simliklar aralashmasi bo’lmaydi. Agrotexnika qoidalari asosida o’stirilgan dorivor o’simliklar serhosil va biologik faol moddalarga boy bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2017 y., 06/17/5264/0339-son)

2. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari (maqolalar to‘plami, SH.Nurmatov, O’. AHMEDOV, A. ERGASHEV, A. ABZALOV Dorivor o’simliklar va ularni o’stirish texnologiyasi

3. Ma’mura Niyozmatjonovna Sodullayeva. RASTOROPSHA – SILYBUM MARIANUM L. NING YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINING BA’ZI JIHATLARI. Samarkand branch of Tashkent State Agrarian University Volume | SamTSAU Conference | 2023 Theoretical and practical foundations of introducing smart agriculture in Uzbekistan.

4. Internet saytlar http://www.abcslim.ru/articles/346/artishok

SINTAKTIK OMONIMLAR
СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОМОНИМЫ
SYNTACTIC HOMONYMS

Polvonova Bashorat Mirobijonovna
TATU Farg‘ona filiali akademik litseyi o‘qituvchisi
Преподаватель академического лицея при Ферганского филиала ТУИТ
Teacher of academic lyceum of Fergana branch of TUIT

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslikdagi omonimlik masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda zamonaviy sintaktik omonimiya hodisasi haqidagi qarashlar umumlashtiriladi. O‘zbek tilshunosligida omonimiya deb ataladigan hodisa va uni polisemiya yoki polisemiya deb ataladigan tushunchadan chegaralash bo’yicha qarashlar birligi mavjud emasligi hamda ko’p ma'nolilik so’zlarga ham, morfemalarga ham (ildiz va affiksal) xosdir, konstruktiv ob'ektlarga (iboralar, gaplar, matnlar) ham xosligi muhokama etiladi. Ko’p ma'noli so’zlarning katta qismini (ham muhim, ham yordamchi) tavsiflaydi, ularni har qanday tilning izohli lug’atini ochish orqali osongina ko’rish mumkin. Omonimlikka doir mavjud fikrlar tahlil qilinib, uning adabiyot fanidagi o‘rni tahlil etilishi bilan birga lisoniy dalillar bilan izohlanadi.

Аннотатция. Данная статья посвящена проблеме омонимии в языкознании и обобщает взгляды на явление современной синтаксической омонимии. В узбекском языкознании нет единства взглядов на такое явление, как омонимия и его отграничение от понятия, называемого полисемия или полисемия, причем полисемия свойственна как словам, так и морфемам (корневым и аффиксальным), конструктивным объектам (словосочетаниям, предложениям, текстам). также обсуждаются. Описывает большое количество многозначных слов (как важных, так и вспомогательных), в которых легко убедиться, открыв толковый словарь любого языка. Анализируются современные мнения по этому вопросу, анализируется и объясняется его место в литературе с помощью лингвистических данных.

Abstract. This article is devoted to the issue of homonymy in linguistics, and it summarizes views on the phenomenon of modern syntactic homonymy. In Uzbek linguistics, there is no unity of views on the phenomenon called homonymy and its delimitation from the concept called polysemy or polysemy, and polysemy is characteristic of both words and morphemes (root and affixal), constructive objects (phrases, sentences, texts) are also discussed. Describes a large number of ambiguous words (both important and auxiliary), which can be easily seen by opening an explanatory dictionary of any language. The current opinions on the subject are analyzed and its place in literature is analyzed and explained with linguistic evidence.

Kalit so‘zlar: omonimlar, omoforma, omograf, omofon, affiks omonimiya, leksik omonimiya, frazaviy omonimiya, parafrazaviy omonimiya, tajnis, iyhom, muammo.

Ключевые слова: омонимы, омоформа, омограф, омофон, аффиксная омонимия, лексическая омонимия, фразовая омонимия, парафразальная омонимия, тайнис, аллюзия, проблема.

Key words: homonyms, omoform, homograph, homophone, affix homonymy, lexical homonymy, phrasal homonymy, paraphrasal homonymy, tajnis, ihyom, problem.

Omonimlarga A.Hojiyev shunday ta’rif beradi “OMONIMIKA. 1. Tilshunoslikning omonimlarni o‘rganuvchi bo‘limi. 2. Biror tildagi omonimlar majmui. OMONIMIYA. Birdan ortiq til birligining talaffuz va tuzilishi jihatdan bir xil bo‘lishi hodisasi. Omonimiyaning l e k s i k omonimiya; frazeologik omonimiya; grammatik omonimiya turlari bor.

OMONIMLAR (yun. homos — bir xil, onuma — nom). Talaffuzi va yozilishi bir xil birdan ortiq so‘zlar: bog` (turli meva, gul va b. dan iborat maydon) — bog` (bog`laydigan narsa), ot (ism) — ot (ish hayvoni) kabi”.[2]

“Omonimlar - shakldosh so‘zlar. Yozilishi va talaffuzi bir xil, ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlar omonimlar deyiladi. Masalan, o‘t (“olov"), o‘t (“maysa”) kabi. Omonimlar bir so‘z turkumiga ham, turli so‘z turkumiga ham mansub bo‘lishi mumkin. Omonimlar ham tilda azaldan mavjud ayrim so‘zlarning o‘xshashligidan, ba’zan boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar hisobidan paydo bo‘lishi mumkin. Omonimlar har bir tilda uchraydi. Omonim so‘zlar kontekstda yaqqol ajralib turadi. Masalan, «quritib qo‘yilgan o‘tga o‘t ketmasin» deganimizda har ikkala «o‘t»ning ma’nosini ajratib olish qiyin emas. Navoiy o‘z asarlarida omonimlarning

Omonimlar yozilish va grammatik shakliga ko‘ra uch xil bo‘ladi:

1. **Omofonlar** “ talaffuz etilishi bir xil, lekin tovushlar tarkibidagi ba’zi fonemalar farqli bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida yetti (son) - yetdi (fe’l); bod - bot, bob - bop, mard - mart rus tilida plod (meva) - plot (sol) kabi.

2. **Omoformalar** - turli so‘z turkumlarining ayrim grammatik shakllarida ro‘y beradi. Bu hodisa odatda turli turkumga oid so‘zlar o‘rtasida sodir bo‘ladi. Masalan, olma (ot) - olma (fe’l), yor (ot) - yor (fe’l) va boshqalar. Omoformalar boshqa grammatik shakllarda o‘zaro omonimlik xususiyatini yo‘qotadi, Masalan, Yorím dushman safini yorib o‘tdi. Bu misolda yorím - yorib so‘zlari grammatik shakliarini olgach, o‘zaro omonimlik xususiyatini yo‘qotgan.

[2] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent. O‘qituvchi,1998.70-bet.

3. **Omograflar** - yozilishi bir xil, talaffuzi farqli bo‘lgan so‘zlardir. Masalan, tok (uzum) - tok (elektr quvvati) kabi”.[3]

Omonimiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra omonimlik fanda affiks omonimiya, leksik omonimiya, frazaviy omonimiya, parafrazaviy omonimiya, so‘z birikmasi omonimiyasi, gap omonimiyasi , ishoraviy omonimiya kabi turlarga bo‘linadi[4]. Turkiy til omonimlarining dastlabki tadqiqotchisi Mahmud Koshg‘ariy bo‘lib, u “ Devoni lug‘otit turk” asarida omonimlarni yig‘ish bilan birga ularni sharhlab ham o‘tgan. “Devoni lug‘otit turk” asarida o‘t so‘zining o‘simlik , quruq xashak, davo va zahar singari to‘rt xil ma’noda ishlatilishini ko‘rsatib beradi [5]. Alisher Navoiy esa o‘z asarlarida shakldosh so‘zlarning semantik hamda poetik xususiyatlarini ko‘rsatib berar ekan, ular ona tilimizning boyligi ekanligini ta’kidlaydi va omonimlar yordamida faqat turkiy tillarga xos bo‘lgan go‘zal tuyuqlar yaratish mumkinligiga dalillar keltiradi[6]. Omonimiya bo‘yicha rus tilshunosligida V.V.Vinogradov , L.A.Bulaxovskiy, A.I.Smirnitskiy, A. A. Reformatskiy[7] kabi olimlar tadqiqotlar olib borib, ularda so‘zlar ortasidagi omonimik holat bilan har xil so‘z ko‘rinishlarining omonimligini farqlash zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Turkologiyada B.M.Yunusaliyev, Faxri Kamol, Y.Pinxasov, hozirgi o‘zbek tilshunosligida esa U.Tursunov, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, S.Mutallibov va F.Rajabov, Sh.Rahmatullayev, M.Ravshanov, B.Suyunov, M.Jo‘raboyeva, N.Rajabov, K.Usmonovlar ilmiy tadqiqot olib borganlar kabi olimlar ish olib bordi[8]. F.U.Rajabov “Omonimiyaga oid tadqiqotlar talqini ” maqolasida quyidagi fikrni bildiradi: “ Omonimiya ba’zi olimlar tomonidan salbiy hodisa deb baholanadi. Aytishlaricha, omonimiya fikrni tez va to‘g‘ri anglashga xalaqit beradi. Shu jihatdan til uchun ortiqcha yuk deb qaraladi. Bu fikrga to‘liq qo‘shilishimiz qiyin, chunki omonimning yolg‘iz o‘zi bilan gap tuzib, fikr anglatish

[3] Sharipova O’. ,Yo’ldoshev I.Tilshunoslik asoslari. Toshkent. TDPU Rizograf.2006.39-40-bet.
[4] Rajabov F. Omonimiya.-Toshkent: Yangi kitob nashriyoti.2019.264-bet.
[5] Rajabov F.U.Omonimiyaga oid tadqiqotlar talqini.Pedagogical sciences and teaching metods. 2022.285-bet.
[6] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 16-tom. – Toshkent: fan, 2000. 17-bet
[7] Виноградов В.В.О грамматическое омонимии в современном русском языке. BulaxovskiyL.A. “Из жизни омонимов” 1928. –С.56. Смирнитский А.И. Лексикология английского язика. –Москва:1956. Реформатский А.А. Введение язикознание. –Москва:1967.
[8] Yunusaliyev B.M. Kirgizskaya leksikologiya. Frunze 1955. – B.-365. FaxriKamol. O`zbek tili leksikasi. – Toshkent: O`ZRFA nashriyoti, 1953. Pinxasov Y. Hozirgi zamon o`zbek tili leksikasi. –Toshkent: 1960. Raxmatullayev Sh. O’zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari (Frazeologik birliklarda polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonomiya, omonomiya va omonomiklik). -Toshkent, 1966.; Ravshanov M. O’zbek tilining izohli lug’atida omonimlar tavsifi. -Toshkent, 1991.; Suyunov B.T. O’zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. –Toshkent, 2009.; Jo’raboyeva M. O’zbek tilida affiksal omonimiya. (I qism) T.: ToshDU, 1992.; O’zbek tilidagi shakldosh qo’shimchalar (II qism), T.: ToshDU, 1999.; Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo’lish yo’llari // O’zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: 1966.; Mirtojiyev M. O’zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. … avtoref. – Toshkent: 1963. –B.124.; So’zlarning shakliy munosabatiga ko’ra tiplari // O’zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.; Mirtojiyev M. O’zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. Usmonov K. O’zbek tilida affiks omonimlar. –Nasaf:1996.– 86 b. Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo`lish yo`llari // O`zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: 1966. Begmatov E. Hozirgi o`zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.– Toshkent:Fan, 1985. Mirtojiyev M. O`zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. … avtoref. – Toshkent:1963. –B.124 . Mirtojiyev M. So`zlarning shakliy munosabatiga ko`ra tiplari // O`zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. –Toshkent: 1953.

kamdan kam uchraydi. Omonimiya , asosan, matn shaklida bo‘lib, matn esa omonimiya tufayli yuzaga kelgan qiyinchilikni bartaraf etadi. Umuman , omonimiyaning voqe bo‘lishi tilning o‘z xususiyati bilan izohlanadi: har bir tilda tovushlar soni sanoqli, shu tilda ishlatiladigan tovush kombinatsiyalari ham cheksiz emas. Ikkinchidan, leksemalarning ifoda jihatida ham, ma'no jihatida ham uzluksiz o‘zgarishlar bo‘lib turishi bilan omonimiyaning paydo bo‘lishi tabiiy hodisa deb qaralishi lozim ”[9]

Umumiy ma’no unsurlariga ega bo‘lmagan, tasavvuriy bog‘lanmagan , ammo bir xil yozib, bir xil o‘qiladigan birliklar omonimlardir.

Shakldoshlik (omonimiya) leksik birliklarda yaqqol ko‘rinib tursa, sintaksisda tinish belgisi, yoki ohang yordamida aniqlanadi.

Masalan:

1.Siz yomon odam emassiz. 2. Siz yomon, odam emassiz.

Birinchi gapda tinglovchiga ijobiy munosabat bildirilgan bo‘lsa, ikkinchi gapda salbiy fikr ifodalangan. Gaplarning leksik tarkibida va tartibida hech qanday farq yo‘q, faqat yozuvda yomon sifatidan keyin vergul qo‘yilsa, og‘zaki nutqda shu sifatdan keyin to‘xtam bo‘lsa bas, ma’no o‘zgaradi.

Bunday shakldoshlik birikma va ibora o‘rtasida ham yuz beradi. Misol uchun:

Kelinim qovoq solib ovqat qilyapti.(so‘zlashuvdan)

Bu gapda “*qovoq solmoq*” birligi ikki xil ma’no anglatgani uchun gapning ham mazmunini ikki xil tushunish mumkin:

1) kelin tomonidan oshqovoq sabzavoti solingan taom hozirlanmoqda;
2) kelin nimadandir xafa bo‘lib, qovog‘ini uyib ovqat tayyorlaypti.

Bunday omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan birikma va gaplarni matn tarkibida, ya’ni boshqa gaplardan anglashilgan mazmun orqali qaysi ma’no nazarda tutilganini aniqlash mumkin bo‘ladi. Kompyuter lingvistikasida ham omonim so‘zlarni tarjimada ajratish uchun ularning valentligi , ya’ni qanday so‘zlarga bog‘lana olishi katta yordam beradi. “ Oshiq omonimlari ishtirok etgan matnlarni kompyuter matnlarni kompyuter dasturi (google translater) da tarjima qilib ko‘ramiz:

1. Oyqiz bu qizga uzoq tikilgach, uni ashula va dutor **oshig‘i** deb o‘yladi.

Долгое время уставившись на девушку, медведь подумал, что она **влюблена** в пение и дутар.

Bu misolda “yoqtirmoq” ma’nosidagi oshiq bo‘lmoq qo‘shma fe’li tarjimon dasturning omonimni farqlamasligi natijasida “*sevmoq*” ma'nosidagi so‘zga o‘zgartirilgan.

2. Endi hovlilarning eshiklari ochilgan, bolalar cho‘ntaklarini yong‘oq, **oshiqlarga** to‘ldirib , ko‘chaga chiqa boshlagan edi.

[9] Rajabov F.U.Omonimiyaga oid tadqiqotlar talqini.Pedagogical sciences and teaching metods. 2022.289-bet

Теперь двери дворов были открыты, и дети стали выходить на улицы, наполняя карманы орехами и **любовниками**.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, avtomatik tarjima jarayonida ham omonimlar bilan bog‘liq muammolar talaygina. Omonimlar modelini ishlab chiqish va uni tarjima jarayoniga o‘zlashtirish hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalarni birmuncha kamaytiradi. Bu holatda omonimlar oladigan valentliklarni bazasini yig‘ish bu masalani yechishga yordam beradi, ya’ni oshiq so‘zi misolida ko‘radigan bo‘lsak, o‘yin ma’nosida kelayotgan “oshiq” so‘zi “o‘yin” so‘zini valentlik sifatida qabul qiladi, yoki tana a’zosi sifatidagi “oshiq” so‘zi tana a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni valentlik sifatida qabul qiladi”.[10]

Sintaktik omonimlik hodisasi nafaqat so‘zlarning bog‘lanish bazasini (valentligini), shuningdek, bu bog‘lanishdan chiqadigan mazmunni ham tekshiradi va bu zamonaviy tilshunoslik bo‘limlari uchun hozirgi kunda juda zarur. Hozirda adabiy tilimizga oid SH. Rahmatullayevning “Omonimlarning izohli lug‘ati” [11] asaridan boshqa ishonchli lug‘at mavjud emasligini hisobga olsak, sintaktik omonimlar lug‘atini yaratish vazifasi ham naqadar dolzarbligi anglashiladi.

Sintaktik omonimlarning yana bir jihati badiiy matnlarda keltiriladigan **tajnis** va **iyhom** she’riy san’atlarida bo‘lib, bunda omonim so‘zning gap mazmunini o‘zgartirib yuborishi kuzatiladi. Masalan:

Ko‘ngil shishasida mehring mayidur,

Jafo birla anga **tosh urmog‘**ing ne? (Atoiy)

Bu baytda qatnashgan *tosh urmoq* birligi gapning ma’nosini ikki xil tushinilishiga sabab bo‘ladi:

1) shishadek yupqa ko‘nglim idishida mehring mayi bor, uni tosh bilan urib sindirishdan maqsading nima edi;

2) shishadek yupqa ko‘nglim idishida mehring mayi bor, undagi suyuqlik toshib chiqishiga jafolaring sabab bo‘lyapti.

Yoki yana bir misol:

Labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zimdan qon ravon qildi,

Nechun holim yomon qildi, man andin bir **so‘rorim** bor. (Bobur)

Bu baytda so‘rish fe’li ikki xil ma’no anglatgani uchun gapning mazmuni ham ikki xil anglashiladi. Birinchi ma’nosi so‘rash, savol berish bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi so‘rish, o‘pish ma’nosida qo‘llangan. Bunday xarakterdagi badiiy matnlar mumtoz she’riyatda ko‘p uchraydi va bu nisbatan murakkab bo‘lgan ***iyhom*** she’riy san’atini hosil qiladi. “Arab tilida “iyhom” so‘zi “shubhaga solish ” degan ma’noni ifodalaydi. Mumtoz adabiyotda esa iyhom haqiqiy va majoziy ma’nolarga ega , yohud shaklan bir,

[10] Abduvahobov G’., Alijonova F.,Kompyuter lingvistikasida omonimlik hodisasi tadqiqi. Multidisciplinary Scientific Journal.2022.6-bet.
[11] Rahmatullayev Sh.,O’zbek tili omonimlarining izohli lug’ati, Toshkent. 1984.

ma’no jihatdan har xil bo‘lgan (jinsdosh) bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasini she’riyatda qo‘llagan holda bir baytda ikki xil ma’noni ifoda etish san’atidir. Masalan Navoiyning:

Bosh qo‘yay dedim oyog‘i tufrog‘iga , dedi: “ **Qo‘y**”,

Bo‘sa istab la’li rangin so‘rdim, ersa dedi: “**Ol**”.

Misralarining birinchisidagi “qo‘y” so‘zini ikki ma’noda “mayli qo‘ya qol” hamda “Qo‘y, kerakmas” ma’nosida tushunish mumkin. Shunga ko‘ra misra mazmuni ham musbat , ham manfiy ma’noda anglashiladi. Ikkinchi misradagi “rangin” so‘zi “rangini” hamda “qizil” ma’nosini anglata oladi. Binobarin, misrani “ bo‘sa istab, labi rangini so‘rasam, “qizil” dedi ” hamda “ bo‘sa istab, la’ldek qizil labini tilasam, “ola qol” dedi ” ma’nosida tushunilishi mumkin”.[12]

Yuqoridagi baytda bitta so‘zdan iborat gaplar “Ol”va “Qo‘y” orqali omonim gaplar yuzaga kelgan.

Bundan tashqari, mumtoz she’riyatda muammo janri borki, bunda bitta matn ikki xil ma’noda tushuniladi, ya’ni ichki va tashqi ma’no. “*Muammo* arabchada “ko‘r qilingan” yoki “berkitilgan” degan ma’nolarni beradi. Uning asosiy xususiyati biror fikr , nom yoki xususiyatning yashirin berilishidir. Ko‘pincha , muammo ikki ma’no asosiga quriladi. Birinchisi – tashqi – chalg‘ituvchi ma’no , ikkinchisi – ichki asosiy ma’no.

Xast dar silsilayi xoqoniy,

Muhrdoreki nadorad soniy.

Baytning birinchi ma’nosi : xoqoniylar silsilasida (podsholik tarixida) shunday bir muhrdor borki, unga teng keluvchi ikkinchi birini topolmaysiz. Ikkinchi ma’nosi : xoqoniylar silsilasida (podsholik tarixida) shunday bir muhrdor borki, ikkinchi unday murdorni topolmaysiz. Baytda muammo qoidasiga ko‘ra ikkinchi harfning tushirilishi lozimligiga ishora qilinyapti. Arab yozuvida “h” *muhrdor* so‘zining ikkinchi harfi sanaladi. U tushib qolsa *muhrdor* so‘zi *murdor*ga aylanadi. Muammo zehnni tarbiyalash, iqtidorni sinab ko‘rishda muhim o‘rin tutgan”.[13]

Sintaksisda omonim gaplarni omonim so‘zlar va ba’zan mumtoz she’riyatda paronimlar ham hosil qiladi. Xalq og‘zaki ijodidagi askiya san’atida ham so‘zlovchilar omonim gaplardan foydalanib, uyatli, ochiq so‘zlash noqulay bo‘lgan fikrlarni ayta olishgan, bu esa so‘z ma’nosini chuqur anglaydigan xalqimiz uchun juda qiziq bo‘ladi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, sintaktik omonimiya badiiy adabiyotda allaqachon san’at darajasiga chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent. O‘qituvchi,1998.

[12] Hojiahmedov A.,Mumtoz badiiyat malohati.Toshkent. “Sharq”.1999.74-bet.
[13] Qosimov B.,To’xliyev B., Yo’ldoshev Q., Adabiyot. Darslik. Toshkent. “O’qituvchi”.2004.126-bet.

2. Sharipova O’. ,Yo‘ldoshev I.Tilshunoslik asoslari. Toshkent. TDPU Rizograf.2006.

3. Rajabov F. Omonimiya.-Toshkent: Yangi kitob nashriyoti.2019.

4. Rajabov F.U.Omonimiyaga oid tadqiqotlar talqini.Pedagogical sciences and teaching metods. 2022.

5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 16-tom. – Toshkent: fan, 2000.

6. Виноградов В.В.О грамматическое омонимии в современном русском языке. BulaxovskiyL.A. “Из жизни омонимов” 1928. –С.56.

7. Смирнитский А.И. Лексикология английского язика. –Москва:1956. Реформатский А.А. Введение язикознание. –Москва:1967.

8. Abduvahobov G’., Alijonova F.,Kompyuter lingvistikasida omonimlik hodisasi tadqiqi. Multidisciplinary Scientific Journal.2022

9. Rahmatullayev Sh.,O’zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati, Toshkent. 1984

10. Hojiahmedov A.,Mumtoz badiiyat malohati.Toshkent. “Sharq”.1999.

11. Qosimov B.,To‘xliyev B., Yo‘ldoshev Q., Adabiyot. Darslik. Toshkent. “O’qituvchi”.2004

ИЗУЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФОРМ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Мамбетов Икрам
Каракалпакский государственный университет

В статье изучены художественные формы каракалпакской поэзий исследованы в контексте устного народного творчества и творчества поэтов-классиков. Анализированы функциональный уровень передачи значения художественной формы, специфика форм, генезис, отношения и роль национального стиля.

Художественная форма, устное народное творчества, классическая поэзия, образность, стиль.

Поэтическое слово–основа духовной жизни народа. Рождение каракалпакской поэзии тесно связано с формированием каракалпакской народности. Поэзия с древнейших времен воспевала и защищала интересы определенного общества, народа. Как известно, в структурном отношении эта поэзия в основном бытовала в форме одиннадцатисложных стихов и семи-восьмисложных терме, толгау. Однако, поэзия не ограничивалась только рамками этих двух форм. Существовали иные формы, которые ярко проявляли себя в устном народном творчестве. Все это служили в дальнейшем надежной основой для эволюционного перехода старых форм в новые. Уже к началу XIX века в каракалпакской поэзии наряду с терме и толгау о себе заявляет новое формообразование стихи с одиннадцатисложной, четырехстрочной строфой. А в 30-е годы XX века в области формообразования в каракалпакской поэзии происходят заметные изменения, которые привели к образованию новых поэтических форм.

Все это в определенной степени нашло свое отражение в каракалпакском литературоведении. С.Ахметов в своих трудах «Очерки истории каракалпакской поэзии» отмечает, что в каракалпакской поэзии до XX века в основном существовали формы терме и 7-8-сложные стихотворные формы, а в XX веке они были заменены новыми активными формами, пришедшими из письменных тюркоязычных литератур. Он подвергает анализу поиски каракалпакских поэтов в области формы, виды строф и рифм, использованных поэтами, и приходит к выводу, что поэзия многих поэтов по размеру является продолжением традиционной поэзии. Это суждение ученого подтверждается анализом стихотворений с 11-и, 8-сложными четырехстрочными строфами и с восьмисложными терме. Ученый отмечает мастерство ряда поэтов в

использовании художественно-изобразительных средств. (Эпитет, сравнение, метафора, гипербола), а также указывает, что большинство стихотворений этого периода носили агитационный характер. Для творчества многих поэтов 1920-х годов прошлого века была характерна тема нового времени, тема обновляющейся жизни с новым содержанием. Новое содержание требовало от поэтов новых форм изображения. Однако, владение новыми формами шло сложными путями. Освободиться от груза традиций, и приобщать к новым влияниям было нелегко. Поэтому в поэзии этого периода параллельно с новыми формами шли традиционные формы.

Ученый-литературовед К.Мамбетов в научном очерке «Ажинияз» рассматривает лирику Ажинияза и в аспекте жанровых форм и структурного своеобразия. В работе отмечается, что Ажинияз в каракалпакскую поэзию ввел новые поэтические формы газель, мухаммес, четверостишие, а также отличается, что в творчестве поэта сосуществуют две поэтической формы: классическая восточная и традиционная каракалпакская.

Академик Х.Хамидов пишет; «Нет сомнения в том, что форму мухаммес в каракалпакскую поэзию ввел Ажинияз. И профессор К.Жаримбетов солидаризуется с этим мнением. К.Жаримбетов, изучая жанровое своеобразие каракалпакской лирики XIX века, отмечает, что истоки каракалпакской лирики восходят к древним образцам устного народного творчества, к терме и толгау, которые традиционно сочинялись и исполнялись народными сказителями-жырауами, указывает, что в терме, толгау наличествуют элементы лирики, что каракалпакские терме-толгау, пословицы и поговорки являются истоками каракалпакской дидактической поэзии. По мнению автора жырау-сказитель через образ лирического героя в той или иной степени выражает свое чувство, отношение, однако это далеко от полного осознания лирическим героем собственного индивидуального «я». В этом плане терме, толгау можно считать промежуточным этапом при переходе от одного жанра в другой. Придерживаясь мнений известного фольклориста К.Айымбетова, К.Жаримбетов считает, что между четверостишием и рубаи нет большой разницы, что своеобразие этих жанров связано с стихотворным размером.

В монографии К.Оразимбетова достаточно подробному анализу подвергаются жанровые особенности свободного стиха, его структурные и формообразующие элементы. Рождение подобной новой формы стиха в каракалпакской лирике ученый связывает с активным развитием литературных взаимосвязей с активным развитием литературных взаимосвязей и взаимодействий. Поскольку любая национальная литература, не входя во взаимодействие с другими литературами и не перенимая их достижения, развиваться изолированно не в состоянии. Мустазады, созданные нашими

поэтами К.Оразимбетов считает «сложным жанром». Потому что когда чуждая стихотворная форма принимается другой литературой, ее размер не может оставаться не тронутым. Это связано с фонетическими возможностями каждого языка. Здесь не следует забывать о критериях стихотворного размера, присущих поэзии каждого народа, без относительно внешней формы стиха. Появление моностихов в каракалпакской лирике К.Оразимбетовым оценивается как признак развития литературы. Малочисленные моностихи, созданные поэтами Т.Жумамуратовым и Ж.Избаскановым не дают достаточно серьезного материала для определения общей направленности поисков лирики в области формы и жанра. Но как факт наличия этой формы в каракалпакской лирике может быть принято во внимание.

Литературовед К.Муратбаев в своей книге «Структура стихов в каракалпакской поэзии» предлагает начать разговор о структуре стихов с рассмотрения фольклорных произведений. По мнению исследователя, распространенная среди поэтов практика делить строки на «лесенки», имевшая место в 30-е годы XX века, носил подражательный характер, и поэтому она не имела особых успехов. Как отмечает К.Муратбаев, подобная форма является следствием роста межлитературных связей. Заслуживает внимание суждения исследователя, касающееся восточной стихотворной формы аруза. Рассуждая о различии просодий арабского и каракалпакского языков, ученый приходит к выводу о том, что форма аруза не свойственна каракалпакской поэзии. Поэтому при оценке образцов классической поэзии, внешне напоминающих метр аруза, следует исходить не из их внешних формы, а из их внутренней организации. Также в последние годы в каракалпакской литературе появился ряд значительных исследований, посвященных особенностям развития каракалпакской поэзии.

Литературы:

1. Ахметов С. Қарақалпақ поэзиясы тарийхының очерклери. – Нөкис: 1961.

2. Жәримбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери ҳәм раўажланыў тарийхы. –Нөкис: Билим, 2004.

3. Kamalovich, M. I. (2021). Research of Artistic Form in Karakalpak Literary Criticism. American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(4), 135–138. Retrieved from https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/468

4. Mambetov, I. “QARAQALPAQ POEZIYASÍNDA ÚSH QATARLÍ BÁNTLER”. *RESEARCH AND EDUCATION*, vol. 1, no. 8, Nov. 2022, pp. 110-4, https://researchedu.org/index.php/re/article/view/901.

5. Mambetov I. K. Artistic researches in Karakalpak poetry (Based on the material of the Karakalpak poetry of the 1930s) Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). 2020, Volume: 9, Issue: 3. p 56-60. DOI. 10.5958/2278-4853.2020.00058.0

6. MAMBETOV IKRAM KAMALOVICH (2020). “The Issue of the Rhyme in the Karakalpak Poetry of the 1930th”. Name of the Journal: International Journal of Academic Research in Business, Arts and Science, (IJARBAS.COM), P, 61- 69. DOI: http://doi.org/10.5281/zenodo.3779055 , Issue: 4, Vol.: 2, Article: 7, Month: April, Year: 2020. Retrieved from https://www.ijarbas.com/all-issues/

7. Мамбетов И. Художественные исследования в каракалпакской поэзии Международный научный журнал «PHILOLOGY» №1, (25) Январь, 2020, 22-24 стр. Волгоград, Россия

8. Мамбетов К. Әжинияз (илимий очерк). – Нөкис: Билим, 1994.

9. Мамбетов И. Қарақалпақ поэзиясында бәнт (XX әсирдиң 30-жылларындағы қарақалпақ поэзиясы мысалында) НМПИ «Илим ҳәм жәмийет» №3. 2019, 67-69 б, Нөкис.

10. Ҳамидов Ҳ. Шығыс тиллериндеги жазба дереклер ҳәм XIX әсирдеги қарақалпақ шайырлары. – Нөкис: Қарақалпастан, 1991.

11. Оразымбетов Қ. Таңламалы шығармалары. II томлығы. – Нөкис: Билим, 2018.

ҲИДОЯ АСАРИГА ЁЗИЛГАН БЕШТА МЎЪТАБАР ШАРҲ КИТОБЛАРИ

Илҳомжон Муроталиевич Ғофуров
Ўзбекистон халқаро ислом академияси таянч докторанти,
Тошкент ислом институти ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада Бурҳониддин Марғинонийнинг қаламига мансуб “Ҳидоя” асарига ёзилган бешта мўътабар шарҳлар ҳақида маълумотлар бериб ўтилган. Олимлар тарафидан “Ҳидоя” асарига ёзилган шарҳлар сони 100 дан ошиши, улар орасида мазкур бешта шарҳ уламолар орасида машҳур экани, улардан кейин ёзилган китобларда асосан мана шу манбалардан фойдаланилгани айтиб ўтилган. Шунингдек, мазкур асарларнинг ёзилиш сабаблари, услуби ва манбашунослик таҳлиллари имкон қадар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Асар, шарҳ, мухтасар, матн, мусанниф, машойихлар, мазҳаб, манба, услуб.

Бурҳониддин Марғинонийнинг “Ҳидоя” асари ҳанафий мазҳабини ёритишда муҳим манбалар қаторида туради. Мусанниф аввалда имом Муҳаммад ибн Ҳасан Шайбонийнинг “Жомиъу-с-сағир” ва Қудурийнинг “Мухтасари Қудурий” асарларини жамлаб “Бидояту-л-мубтадий” асарини ёзади. Сўнгра уни шарҳлаб 80 жилдли “Кифояту-л-мунтаҳий”ни таълиф этган. Бу шарҳ жуда катта бўлиб, ўқувчига малол бўлмаслиги учун “Ҳидоя” асарини ёзган.

“Ҳидоя” асари саккиз асрдан буён ҳанафий мазҳаби бўйича мўътабар қўлланма сифатида барча мусулмон мамлакатларидаги мадраса ва Ислом олий ўқув юртларида ўқитиб келинмоқда. Унинг матни ва қисқартмалари устида 100 дан ортиқ шарҳлар ва ҳошиялар ёзилган. Мазкур шарҳлар ичида ёзилган вақтидан бошлаб, то ҳозирги кунгача уламолар тарафидан бирдек эътироф этилиб, “Ҳидоя” асарини тушунишда кенг қўлланиб келинадиган ва эътиборга молик шарҳлар қуйидагилар ҳисобланади:

1. Саййид Жалолиддин ибн Шамсиддин Хоразмий Гурланийнинг (ваф. 767/1366) “ал-Кифоя шарҳу-л-Ҳидоя” асари[14]. Асар “Ҳидоя”га ёзилган аввалги шарҳлардан саналади. Шунинг учун Жалолиддин Хоразмийдан кейин яшаб ийжод қилган уламолар ўзларининг таснифотларида мазкур шарҳдан кенг фойдаланганларини кўриш мумкин.

[14] Муҳаммад Абдулҳай Лакнавий. Фавоиду-л-баҳийя фи таржиматии-л-ҳанафийя. – Байрут: Дорул-китаби-л-исламий, 1906. – Б. 58; Ҳожи Халифа. Кашфу-з-зунун ан асоми-л-кутуб ва-л-фунун: – Байрут: Дору-л-фикр, 1998. – Ж. II. – Б. 2034.

Китобнинг ёзилиш услубига келадиган бўлсак, “Ҳидоя” асаридан бир сўз ёки бир жумлани танлаб олиниб уни шарҳланган. Муаллифнинг ўзи асарнинг ёзилиш сабаби ва услубини баён қилиб шундай деган:

“Фиқҳда усул ва фуруъ масалаларининг энг латифларини жамлаган китоблар кўп. Уларнинг ададини санаб адо этиб бўлмайди. Улар орасида “Ҳидоя” китоби борки, мусаннифи воқеаларнинг аслини, масалаларнинг сарасини жамлашга ва ривоятлар ўзгинасини, далиллар матнини беришга муваффақ бўлган. Лекин бу китоб “ал-Бидоя”нинг мушкил ўринларини очиш, қийин жойларини равшанлаштириш учун ёзилган бўлса ҳам унинг сир-асрорлари пардага ўралган ҳолатда қолганки, нозик нуқталарни чиқаришга уста, тадқиқотларга ўткир уламоларгина ўша пардаларни очишга муяссар бўладилар. Бизнинг машойихларимиз ундан пардани кўтариб, юзидан ниқобни очиб, унга кўп фойдалар қўшиб китоблар ёзишган. Лекин баъзи китоблар ниҳоятда қисқа, баъзилари эса ўта даражада узайиб кетган. Мен шарҳлашда ўрта йўлни тутдим ва фақат ҳожат тушадиган, керак бўладиган сўзларнигина ёзишга ҳаракат қилдим”[15].

Асар Ибн Ҳумомнинг “Фатҳу-л-қодир” асари билан бирга нашр қилинган. Аввалда 1832 йили Қозонда тўрт мужаллад қилиб ҳажми катта-катта ҳарфлар билан нашр этилган. Ундан учинчи ва тўртинчи жузлари Маккадаги “Мактабату-л-Ҳарам”да сақланади. Мазкур тўрт жилдли шарҳ 1820 саҳифадан иборат. Кейинги нашри1834 йили Калкуттада тошбосма қилиб асарнинг ўзини алоҳида нашр этилган[16].

2. Акмалиддин Бобартий номи билан машҳур бўлган Муҳаммад ибн Муҳаммад Маҳмуд ибн Аҳмаднинг (ваф. 786/1384) “ал-Иноя шарҳу-л-Ҳидоя” асари[17]. Китоб икки жилддан иборат бўлиб, “Ҳидоя”нинг мўътабар шарҳларидан бири саналади[18].

Акмалиддин Бобартий китоб муқаддмасида бу асарини Сиғноқийнинг “ан-Ниҳоя”сидан қисқартиб олгани, бунга “ан-Ниҳоя”да шарҳ кўпайиб кетганлиги туфайли масалаларни жамлаш қийин бўлиб қолганини сабаб қилиб кўрсатади.

“Ал-Иноя шарҳу-л-Ҳидоя” асари аввалда бошқа шарҳларга қўшилмаган ҳолатда 1831 йили Калкуттада тўрт жилдли қилиб нашр қилинган эди[19].

[15] Жалолиддин Хоразмий. “Ал-Кифоя Фи шарҳи-л-ҳидоя”. – Қозон: 1886. – Ж. I. – Б. 3.
[16] Бурҳониддин Марғиноний. ал-Ҳидоя шарҳу бидояти-л-мубтади. Саъид Бектош таққиқи. – Мадинаи Мунаввара: Дору-с-сирож, 2019. – Б. 105.
[17] Қосим ибн Қутлубғо. Тожу-т-тарожим фий табақоти-л-ҳанафийя. – Боғдод: Ал-Аний, 1962. – Б. 276; Муҳаммад Абдулҳай Лакнавий. Фавоиду-л-баҳийя фи таржиматии-л-ҳанафийя. – Байрут: Дорул-китаби-л-исламий, 1906. – Б. 195;
[18] Ҳожи Халифа. Кашфу-з-зунун ан асоми-л-кутуб ва-л-фунун: – Байрут: Дору-л-фикр, 1998. – Ж. II. – Б. 2035.
[19] Бурҳониддин Марғиноний. ал-Ҳидоя шарҳу бидояти-л-мубтади. Саъид Бектош таққиқи. – Мадинаи Мунаввара: Дору-с-сирож, 2019. – Б. 107.

Кейинчалик Ибн Ҳумомнинг “Фатҳу-л-қодир” асари ва бошқа шарҳлар билан бирга ҳам нашр этилган.

3. Ислом дини барча фанларининг имоми Бадриддин Маҳмуд ибн Аҳмад Айнийнинг (ваф. 855/1451) “ал-Биноя фи шарҳи-л-Ҳидоя” асари бўлиб, “Ҳидоя”нинг машҳур шарҳларидан саналади[20].

Бадриддин Айний “ал-Биноя фи шарҳи-л-Ҳидоя” асарининг 15 жуз 339 саҳифасида, шарҳни ёзишликдан мақсад “Ҳидоя”нинг тушуниш қийин бўлган жойларини очиб бериш, унда келтирилган масалаларни баён қилиб ўтиш эканлигини такидлайди. Муаллиф бу асарни 817 ҳижрий йилда бошлаган бўлса, 850 ҳижрийда Муҳаррам ойида Қоҳирада тамомига етказган[21].

Муҳаммад Ошиқ Илоҳий “ал-Биноя шарҳу-л-Ҳидоя” асарининг янги нашрига ёзган муқаддимасида унга қуйидаги таъриф берган:

“Бу асар “Ҳидоя”га ёзилган катта шарҳ бўлиб, бошқа шарҳлардан устун тарафлари жуда кўп. Жумладан, мусанниф “Ҳидоя” китобининг бирор сўзини қолдирмасан шарҳ қилган. Бирон бир чигал жойи борки, унинг далиллари ва масалалари ила очиб берган. Яна “Ҳидоя” асарида учрайдиган луғат, таркиб ва эъробларини ҳам баён қилиб ўтган. Масалаларни ечишда ҳадис ва осорлардан далилланган, ровийлар ҳақида етарлича маълумотлар бериб ўтган. Қисқача қилиб айтганда, толиби илмдан тортиб илмда етукликка эришган уламолар ҳам эҳтиёжи тушадиган ҳар бир нарсани таҳқиқ қилиб ўтган”[22].

Бундан ташқари Бадриддин Айний “ал-Биноя фи шарҳи-л-Ҳидоя” асарида “Ҳидоя” ва “Мухтасари Қудурий” асарлари нусхаларининг ўзаро фарқ қиладиган муҳим жойларини ҳам айтиб ўтган.

Олим асарнинг кўп ўринларида Тожушшариъанинг “Ниҳаяту-л-кифоя”, аллома Кокийнинг “Меърожу-д-дироя”, Бобартийнинг “ал-Иноя” ва Итқонийнинг “Ғояту-л-баён” китобларидан нақллар келтиради. Шунингдек, ҳадисларнинг таҳқиқи борасида имом Зайлаъийнинг “Насбу-р-роя” китобига таянган ва бошқа зиёдалар ҳам қўшган. Қолаверса, “Ҳидоя” асарида зикр қилинмаган кўпгина фуруъотларни ҳам келтириб ўтади, асарда зикри ўтган уламолар ҳақида ҳам қисқача маълумот бериб кетади.

Хулоса қилиб айтиладиган бўлса “ал-Биноя фи шарҳ ал-Ҳидоя” асари “Ҳидоя” масалаларини очиб беришда бошқа шарҳлардан кўра манфаатлироқ ва гўзалроғидир. Бу шарҳ ҳақида муаллифнинг ўзи айтиб ўтган: “Китобимда ҳар бир дардга шифо ва ҳар бир ташнага чанқоғини қондириш бор” деган сўзлари ўзини тўлиқ оқлайди.

[20] Шамсиддин Саховий. Аз-зовъу-л-ламиъ ли-аҳли-т-тасиъ. – Байрут: Дору-л-жийл, 1935. – Ж. Х. – Б. 133.
[21] Бурҳониддин Марғиноний. ал-Ҳидоя шарҳу бидояти-л-мубтади. Саъид Бектош таҳқиқи. – Мадинаи Мунаввара: Дору-с-сирож, 2019. – Б. 110.
[22] Ўша асар. – Б. 111.

“Ал-Биноя фи шарҳи-л-Ҳидоя” асари “Навал Кишвар” матбаасида 1876 йилда тўрт жилдда нашр қилинган ва унда “Ҳидоя” матни (м) ҳарфи билан, “ал-Биноя” шарҳи эса (ш) ҳарфи билан ажратилган. Кейин Байрутдаги “Дорул фикр” матбаасида 12 жуз қилиб нашр этилган. Лекин бу босмада хатолар кўп учрайди. Ундан кейин Покистонннинг Мултан шаҳрида Масъуд Аҳмад Мултанийнинг таҳқиқи билан 16 жузли қилиб нашр этилган.

4. Ислом оламида Ибн Ҳумом номи билан машҳур бўлган фақиҳ усулий муҳаддис ва барча фанлар билимдони Камолиддин Муҳаммад Абдулвоҳид Сийвасийнинг (ваф. 861/1457) “Фатҳу-л-қодир” асари.

Ибн Ҳумом китоб муқаддимасида шундай деган: “Бу асар “Ҳидоя”га таълиқ бўлиб, 829 ҳижрий йилда айрим биродарларимга “Ҳидоя”ни ўқитиш асносида унга киришдим. Аллоҳ субҳанаҳу ватаъолонинг карамидан бу ишда тўғри йўлга бошлашини умид қилиб қоламан ва “Ҳидоя” асарини ўрганишга бел боғлаганларга мурожаат қилинадиган манба ва заҳира бўлиб қолиши учун буюк олимлар тарафидан айтилган сара маълумотларни жамлашни ирода қилдим.

Мен “Ҳидоя” китобини 818 ҳижрий йилда Саййидим шайх имом мужтаҳидларнинг меросхўри, ҳофизларнинг ўринбосари Сирожиддин Умар ибн Али Киноний (Аллоҳ ўз раҳматига олсин) ҳузурида таҳқиқ қилиб охиригача ўқиб чиқдим... Мен бу шарҳни “Фатҳу-л-қодир ли-л-ожизи-л-фақир”, деб номладим”[23].

Асарнинг ёзилиш услубига келадиган бўлсак, “Ҳидоя” китобидан битта сўз ёки бир жумла ихтиёр қилиниб уни шарҳланган. Демак, мазкур ишда “Ҳидоя”да келган барча сўзлар изоҳланмаган. Шу билан бирга таълиқ қилиб чиқарилган жойлари кенг ва мукаммал очиб берилган. Хоссатан ҳадис ва усул қоидалари батафсил баён қилинган. Китоб дақиқ ёзилганлиги эътиборидан уни тушинишда қаттиқ эътибор ва кенг мулоҳаза талаб қилади. Мана шунинг учун ҳам нафақат ҳанафий мазҳаб уламолари, балки бошқа мазҳаб олимлари ҳам асарни бирдек қабул қилишган ва ўзларнининг асарларида ундан кенг фойдаланишган.

Асар бир неча бор нашр қилинган. Жумладан, Ҳидояга ёзилган бошқа ҳошиялар билан бирга 8 жилдлик қилиб нашр қилинган бўлса, Жалолиддин Хоразмийнинг “ал-Кифоя фи шарҳ ал-Ҳидоя” асари билан биргаликда 9 ва 10 жилдли қилиб нашр этилган[24].

5. Имом Муҳаммад Абдулҳай Лакнавийнинг (ваф. 1304/1887) “Ас-Сиқоя ли-ъатшани-л-ҳидоя” асари. Биринчи бўлиб асарни Лакнавийнинг отаси Шайх Муҳаммад Абдулҳалим Лакнавий (ваф. 1285/1868) бошлаган. Муҳаммад Абдулҳалим Лакнавий вафот этишидан олдин “Савдо” китобидан шарҳлашни

[23] Бурҳониддин Марғиноний. ал-Ҳидоя шарҳу бидояти-л-мубтади. Саъид Бектош таҳқиқи. – Мадинаи Мунаввара: Дору-с-сирож, 2019. – Б. 113,114.
[24] Бурҳониддин Марғиноний. ал-Ҳидоя шарҳу бидояти-л-мубтади. Саъид Бектош таҳқиқи. – Мадинаи Мунаввара: Дору-с-сирож, 2019.. – Б. 114,115

бошлаб “Хиёрул айб” бобига етиб келганида вафот этади. Шундан сўнг ўғли Муҳаммад Абдулҳай Лакнавий уни тамомига етказган[25].

Аллома шайх Абдулфаттоҳ Абу Ғудданинг таҳқиқи остида нашр қилинган “Зофару-л-аманий” китобида мазккур асарни номи “Ас-Сиқоя ли-ъатшани-л-ҳидоя” дея такидланган[26]. Бундан ташқари мазкур ҳошиянинг иккинчи жуз 435 саҳифасида ҳам китобни “Сиқоятун ли атшони-л-ҳидоя” деб айтилган[27].

Асар аввалда ики жуз қилиб тошбосмада нашр этилган. Кейинчалик 1435 ҳижрий санада Карачидаги “Мактабату-л-бушро” матбаасида тўрт жузли қилиб нашр қилинган. Ҳидоянинг матни тошбосмада саҳифа ўртасига қўйилган бўлса, янги босмада саҳифанинг бошига жойлаштирилган. Бироқ Ҳидоя матни таҳқиқ қилинмаган.

Муаллифнинг ўзи ҳошияга бир рисола ёзи уни “Музилату-д-дироя ли муқаддимати-л-ҳидоя” деб номлаган. Мазкур китобда бир неча мавзулар борасида баҳс қилинган. Жумладан: “Ҳидоя” асарида зикри келган кишиларнинг таржимаи ҳоллари, имом Марғинонийнинг “Ҳидоя”нинг ёзишда қўллаган услублари, “Ҳидоя”да содир бўлган айрим мулоҳазали жойлар, “Ҳидоя”да учраб турадиган мубҳам исм ва шаҳарларни шарҳлаш ва шу кабиларни ўз ичига олган.

“Ас-Сиқоя ли-ъатшани-л-ҳидоя” асарининг ўзига хос хусусиятларига келадиган бўлсак, “Ҳидоя”даги муайян масала ва калималарни шарҳлаган таълиқ ҳисобланиб, уни ёзишда ўзидан олдин “Ҳидоя”га ёзилган шарҳлар ва ҳошиялардаги масаллардан танлаб олиниб, ажиб ва фойдари маълумотлар билан бойитилган.

“Ас-Сиқоя ли-ъатшани-л-ҳидоя” китоби ҳақиқатдан ҳам ўз номига мувофиқ “Ҳидоя”даги мушкил жойларини ечишда чанқаган инсонларнинг чанқоғини қондирадиган асардир.

Хулоса қилиб айтганда, юқорида айтиб ўтилган бешта асар: “ал-Кифоя шарҳу-л-Ҳидоя”, “ал-Иноя шарҳу-л-Ҳидоя”, “ал-Биноя фи шарҳ ал-Ҳидоя”, “Фатҳу-л-қодир” ва “Ас-Сиқоя ли-ъатшани-л-ҳидоя” китоблари Бурҳониддин Марғинонийнинг “Ҳидоя” китобига ёзилган шарҳлар ичида энг машҳурлари бўлиб, ҳозирги кунимизгача уламолар тарафидан кенг истифода қилиб келинади. Мазкур шарҳлар “Ҳидоя” китобини тушунишда бирламчи манбалар ҳисобланади.

[25] Ўша асар. – Б. 121.
[26] Муҳаммад Аблдулҳай Лакнавий. Зофару-л-аманий. – Ҳалаб: Мабату-л-матбуъоти-л-исламийя, 1996. – Б. 315.
[27] Бурҳониддин Марғиноний. ал-Ҳидоя шарҳу бидояти-л-мубтади. Саъид Бектош таҳқиқи. – Мадинаи Мунаввара: Дору-с-сирож, 2019. – Б. 121.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI O‘RTASIDA TIBBIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Kultayev Shuxratjon Xolboyevich
Qarshi davlat universiteti tibbiyot kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta`lim muassasalarida tibbiy madaniyat negizida jamiyat kelajagining mustahkam poydevorini yuksaltirish, tibbiyot ilm-faniga ham moddiy, ham ma’naviy e’tiborni kuchaytirish masalalari yoritilgan .

Kalit so‘zlar: Tibbiy madaniyat, tibbiyot ilm-fan rivojlanishi, kelajakning mustahkam poydevori, axborot texnologiyalari.

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Култаев Шухратжон Холбоевич
Каршинский государственный университет
преподаватель медицинского факультета

Аннотация. В данной статье освещены вопросы совершенствования прочных основ будущего общества на базе медицинской культуры в высших учебных заведениях, усиления как материального, так и духовного значения медицинской науки.

Ключевые слова: медицинская культура, развитие медицинской науки, прочный фундамент будущего, информационные технологии.

EFFECTIVE WAYS OF DEVELOPING MEDICAL CULTURE AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Kultayev Shukhratjon Kholboyevich
Karshi State University
teacher of the medical department

Abstract. In this article, the issues of improving the solid foundations of the future of society on the basis of medical culture in higher education institutions, and strengthening both material and spiritual importance to medical science are highlighted.

Key words: medical culture, development of medical science, solid foundation of the future, information technologies.

KIRISH

Bugun O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘quv reja va undagi fan bloklari tarkibida qaysi fanlarni o‘qitish eng dolzarb masaladir. Bugungi kunda insonlar salomatligini saqlash borasida faol, foydali ishlarni amalga oshirish, xalqimizning tibbiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim dolzarb masaladir. Tibbiyot ilm-faniga ham moddiy, ham ma’naviy e’tiborni kuchaytirish, fundamental va ilmiy-innovatsion tadqiqotlar natijalarini hayotga joriy etish orqali jamiyatda tibbiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi. Natijada bu zamonaviy milliy tibbiyot ravnaqining ta’minlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Ma’lumki, tibbiy madaniyat jamiyat salomatligining mustahkam poydevoridir. Bu borada avvalo, oliy ta`lim muassasalari talabalarining tibbiy madaniyatga ega bo‘lish zaruriyatini anglashi va unga qat’iyat, o‘ziga ishonch va mas’uliyat bilan yondashib, tibbiy bilimlarni o‘zlashtirishga jiddiy e’tibor berishi, tibbiy faoliyatning nazariyasi va amaliyoti bilan chuqurroq tanishishi, bilimlarni hayot va amaliyot bilan bog‘lay olishi zarur.

ASOSIY QISM

Tibbiy madaniyatga ega bo‘lish uchun shaxsiy refleksiv qobiliyat ta’sirini kuchaytirish, yangicha harakat qilish va yangicha fikrlash, tibbiyotga qalban yondashish asosida taraqqiy etuvchi shaxs bo‘lishga erishish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda tibbiy madaniyatni oshirish, ayniqsa, tibbiyotda ilm- fanni rivojlantirish, ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo‘nalishini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydilar. Ma’lumki, "Jamiyat - islohotlar tashabbuskori" degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, aholining tibbiy madaniyatini oshirishda ularning yanada faol va yuksak dunyoqarashga ega bo‘lishiga erishish lozim. Eng asosiysi, bu islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishda dolzarb ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning fikri muhim ahamiyatga ega. "Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jipslashib,tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi".

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - buyaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir". Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak [1]. Bugungi kunda tibbiyotda ilm- fanni rivojlantirish, ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlarini

aniqlash va o‘rganishga jiddiy e’tiborni qaratish orqali tibbiy madaniyatni oshirish, tibbiyot va ilm fan sohalarida dolzarb masalalarnitahlil etish muhim hisoblanadi. Ilg‘or xorijiy standartlar asosida tibbiyot tizimini tashkil etish, aholining sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishini yanada kengaytirishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Shu bilan birga tez tibbiy yordam xizmati chaqiriqlarini avtomatik qabul qilish va ijro etish bo‘yicha raqamlashtirish hamda tibbiyot muassasalarini ta’mirlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash eng foydali faoliyatlardandir. “Tibbiyot sohasida taraqqiyotga erishish, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash bilan bog‘liqdir. Bu borada ijtimoiy foydali faoliyatlarni amalga oshirish shu soha yukalishining imkoniyatini beradi. Ayniqsa, jadal islohotlar, ilm ma’rifat va innovatsion faoliyat jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadi” [2].

Ma’lumki, o‘zbek xalqining tibbiy va ma’naviy madaniyatini shakllanishiga olib kelgan ijtimoiy-axloqiy vositalardan biri qadimdan mavjud bo‘lgan hududdagi turli xil diniy va madaniy harakatlar o‘chog‘idir. Ular insonda barkamollik, haqgo‘ylik, adolatni ulug‘lagan. Insonning fikr sofligi, so‘z sobitligini talabetgan holda uning ma’naviy kamoloti me’yorlarini ishlab chiqqan islom dini o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda moddiy va ma’naviy madaniyatning o‘ziga xos rivojlanish xususiyati mavjud. Unda inson ruhiyati, uning ma’naviy olamini bilishga, odamlarning o‘zaro munosabatlarini anglashga e’tibor berilgan. Sharq tafakkurida insonning ijtimoiy ahvolini nisbatan uning ma’naviy kamolotiga kengrok e’tibor qaratilgan. G‘arb falsafasi esa asosiy maqsadini tashqi dunyo tabiatini bilishga, insonlarning tabiatdagi o‘rnini aniqlashga va ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga asosiy diqqatini qaratdi.Eng muhimi ta’limni vosita deb bilib, ilm-fanning barcha qirralaridan keng foydalanib, moddiy to‘kin-sochin jamiyat qurishga intildi. Har ikki jixatning integratsiyalashuvi jarayoni barcha xalqlar o‘rtasidagi qadimiy do‘stlik va madaniy aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tibbiy madaniyat — salomatlik garovi deyiladi. Xalqimiz salomatligini asrash, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli sa’y-harakatlar natijasida yurtimizda epidemiologik vaziyat barqarorligi ta’minlanmoqda. Bugungi kunda shaxsiy gigienaga amal qilish, niqob taqish, yo‘talganda og‘iz va burun qismlarini ro‘molcha bilan berkitish, - ovqatlanishdan oldin qo‘llarni sovunlab yuvish, ko‘proq vitaminga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish tavsiya etilmoqda. Aholining shaxsiy gigiena qoidalari va profilaktika borasida xabardorligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari va ko‘rgazmali targ‘ibot materiallari orqali doimiy ravishda kasallanishning salbiy oqibatlari, uning murakkablashish hollari va immunitet mustahkamligining afzalligiga oid tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Shunga alohida e’tibor berish zarurki, o‘z salomatligiga e’tiborli, jismonan faol, belgilangan muddatlarda tibbiy ko‘rikdan o‘tib, uning xulosalariga to‘la amal qilgan inson xastalikka yo‘liqmaydi. Zotan, ana shunday

yuksak tibbiy madaniyat va sog‘lom turmush tarziga rioya etish orqali nafaqat o‘zimizning, balki kelajak avlodlarimizning ham salomatligini himoyalashga erishamiz. Yoshlarning tibbiy madaniyatni oshirishda quyidagi jihatlarga e’tibor berish zarur hisoblanadi.

Demak, oliy ta`lim muassasalari talabalari o`rtasida tibbiy madaniyatni oshirishda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

-reproduktiv salomatlikka oid ma`lumot berib borish;

-jismoniy madaniyatni doimiy targ`ib etish;

-tibbiy savodxonlikka oid qo`shimcha maxsus kurslar tashkil etish;

-talabalarning darsdan tashqari faoliyatlaridan kelib chiqib tibbiy konsultatsiya ishlarini olib borish va hokazo.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa shuki, tinimsiz o‘qib-o‘rganish, har qanday faoliyatni innovatsion ijtimoiy foydali faoliyatga aylantirish orqali yangi marralarni egallab, cheksiz muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Buning uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, yuksak tibbiy madaniyatga ega bo‘lish barchaning uzluksiz hayotiy ehtiyojiga aylanishi kerak. Tibbiyot sohasida taraqqiyotga erishish, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, jadal islohotlar, ilm ma’rifat va innovatsion faoliyatning samarali amalga oshirilishi tibbiyot taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadi. Yuksak axloq sohibi va tibbiyjihatdan madaniyatli bo‘lishga faqat ma’rifat yordamida erishish mumkin.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 30.12.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
3. www.ziyonet.uz
4. www.natlib.uz

ENGLISH PHONETICS AND PHONOLOGY. THE IMPORTANCE OF ENGLISH VOWEL IN ENGLISH LINGUISTICS

Khakimova Dilshoda Oybek qizi
dilshodaa.khakimova@mail.ru
Faculty of English philology and teaching, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation: In this article, English phonetics, phonology and the role of vowel sounds in linguistics are discussed and worldwide research by various researches are compared.

Key words: consonants, vowels, reading, spelling, pronunciation.

Second language learners of English, like their first language counterparts, are required to decode text presented as a combination of consonants and vowels. Although the content of consonants is known to be crucial for the lexical and semantic related issues that make up a large part of reading, the role of vowels is vaguely delineated; and this may be handled differently by individuals. The complexity of the situation is likely to increase when the learner encounters the writing of the second, whose first language does not contain the same vowel sounds as English. It suggests a primary role for consonants in reading, while at the same time an auxiliary, but separate role for vowels. However, most studies used single words in their experiments, which may not reflect the actual usefulness of vowels in practical reading situations. Whether these auxiliary roles of vowels are specific to specific sub processes or reading outcomes or their dimensions remains to be discovered. If limited, this may have implications for second language reading, where performance may clearly focus on aspects of orthographic input that are more useful for certain tasks than others. To explore these possibilities, it has been hypothesized that vowels may differently affect different aspects of reading, such as word identification, reading comprehension, and reading time in second language learners.

Phonetics and phonology are two branches of linguistics that deal with the study of sounds and their systematic organization in language. Phonetics is the study of speech sounds, while phonology is the study of the sound system of languages. Phonetics is the study of speech sounds and their production, transmission, and perception. English has 44 phonemes (distinct speech sounds) used to form words. These phonemes are divided into two categories: consonants and vowels. Consonants are speech sounds produced by blocking or partially blocking the air flow in the vocal tract. There are 24 consonant phonemes in English. They are further divided into three categories: plosives, fricatives and affricates. Plosives are consonants formed by

completely blocking the flow of air and then suddenly expelling it. Examples of plosive consonants in English include /p/, /b/, /t/, /d/, /k/, and /g/ [1].

Fricatives are consonants that are formed by passing air through narrow openings in the vocal tract. Examples of fricative consonants in English include /f/, /v/, /s/, /z/, /ʃ/ and /ʒ/. Affricates are consonants that begin as a plosive and end as a fricative. Examples of affricate consonants in English include /tʃ/ (as in "church") and /dʒ/ (as in "court"). Vowels are speech sounds produced without any obstruction to the air flow in the vocal tract. There are 20 vowel phonemes in English, which are further divided into two categories: short vowels and long vowels. Short vowels are vowel sounds that are pronounced quickly and with less tension in the muscles of the oral cavity. Examples of short vowels in English are /æ/ (as in "cat"), /ɛ/ (as in "bed"), /ɪ/ (as in "sit"), /ɒ/ (as in "warm"), /ʌ/ (as in "cup") and /ʊ/ (as in "put"). Long vowels are vowel sounds that are pronounced for a long time and are pronounced with more tension in the mouth muscles. Examples of long vowels in English include /eɪ/ (as in "say"), /i:/ (as in "see"), /ɔ:/ (as in "law"), /u:/ (as in "blue") and /aɪ/ (as in "eye") [2].

Phonology is the study of the sound system of languages. In English, the sound system is based on the contrast between consonants and vowels, as well as the stress patterns of words. Stress is the emphasis placed on certain syllables within a word. Stress is important in English because it can change the meaning of a word. For example, the word "now" with the stress on the first syllable (/ˈprɛzant/) means a gift, or with the stress on the second syllable (/prɪˈzɛnt/) to mean something that is happening now. can be reported. English vowels are important in English linguistics for several reasons. First, they play a decisive role in determining the meaning of words. For example, the words "bit" and "beat" differ only in the vowel sound, but they have completely different meanings. Second, English vowels are important in English pronunciation. Vowels are often difficult sounds for non-native speakers to master because they have different pronunciations and are affected by stress and intonation patterns. Third, English vowels are important in English spelling. English has a complex system of spelling vowels that can be difficult to learn. For example, the vowel sound /i:/ can be written in different ways, such as "ee" (as in "see"), "ea" (as in "sea"), "ie" (as in "piece"). "), and "ei" (as in "receive"). English phonetics and phonology are necessary to understand the sound system of the English language. Classifying English consonants and vowels is important in learning English pronunciation and spelling. English vowels are particularly important in English linguistics because they play a crucial role in determining the meaning, pronunciation and spelling of words. By understanding English phonetics and phonology, students can improve their listening, speaking, reading and writing skills in English[3].

In summary, the degree of influence of vowels on scales is different. Among these three, it is reading time that is most clearly affected by full and partial vowel removal

in ESL learners. Spelling errors like these cause a significant change in the time it takes to decrypt the text. Thus, introducing vowel sounds into texts read by ESL learners is necessary to reduce the cognitive load on them. Statistically, word recognition reflects reading time. However, descriptive writings assign a supporting role to vowels, so only those students who need to identify almost all the words in the passage will need the help of vowels. Even partially present, the transition can overcome existing vowels and work very well. The effect of vowels on reading comprehension is clearly demonstrated when comparing full-vowelless and vowelless passages. This alone is enough to support the idea that vowels are critical to text comprehension for ESL learners. Thus, second language learners who are forced to study English under the influence of native language writing or speech may not be able to eliminate vowels while reading. Vowels not only reduce the student's load by helping to complete the task faster, but also enhance the identification of small meaningful units (words) and the understanding of the entire text.

REFERENCE:

1. Abu-Rabia, S. (1996). The role of vowels and context in reading of highly skilled native Arabic readers. Journal of Psycholinguistic Research, 25(6), 629-641.

2. Carreiras, M., Dunabeitia, J. A., & Molinaro, N. (2009). Consonants and vowels contribute differently to visual word recognition: ERPs of relative position priming. Cerebral Cortex, 19(11), 2659-2670.

3. https://www.researchgate.net/

SAMARQAND SHAHRI ATROFIDAGI QO'RGON VA BOG' DEVORLARINING QURILISH TEXNOLOGIYASI VA QURUVCHI USTALAR TARKIBI

Djamilova Maftuna Dilmurod qizi
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti magistri
mapush1996@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand shahri atrofida bunyod etish odat bo'lgan qo'rg'on va bog' devorlarining qurilish texnologiyasi va quruvchi ustalar tarkibi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ustalar ish jarayonida foydalangan qurilish ashyolari va ish qurollari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: urganji, devolkash, qo'rg'on devor, bog' devor, belkurak, bel, digonbel, ko'taray, qumgon, pulod, ketmon, ip, raja, raja ip, tikterash, gulterash, belcha, pichoq, gurza, shibba, payroha, loyxona, qoraturpok, qiziltuprok, mallatob, qum tuproq, sechoyrak, gazbar, gazuchoynak, ketmonchi, belchi, usta, guldasta, qubba, gazber.

Samarqanddagi qo'rg'on quruvchi ustalari qadimda Xorazmdan, asosan Urganchdan tashrif buyurgan o'zbeklar va Kerkilik turkmanlar bo'lgan. "*Urganji"* atamasi ko'pincha uning millatidan qat'i nazar qo'rg'on quruvchilariga nisbatan ishlatilgan. O'z vatanida turkmanlar deb hisoblangan turkman-kerkinlar ustalarga ham shunday murojaat qilishgan. XIX asrning oxirigacha mahalliy tojik ustalari yo'q edi. Ular kelgindi ustalardan hunarmandchilik sir-asrorlarini o'rganib inqilobdan oldingi so'nggi o'n yilliklarda paydo bo'lishdi.

Shunga qaramay, asrning boshlarida ularning soni juda ko'p edi. Aytishlaricha, tojik ustalari - *devolkashlar* Andijon zilzilasidan so'ng 1902 yilda qurilish ishlarida yordam berish uchun Andijonga borishgan. Turkmanlar, xususan kerkinlar, hammasi nasldan-naslga o'tib kelayotgan ota kasb ustalari edi. Usto Beshimning so'zlariga ko'ra, paxsa devorlarni qanday qurishni bilmaydigan turkmanlar yo'q, bu ularning ixtisosligi.

Mahalliy tojik ustalarining paydo bo'lishi bilan kelgindi ustalar oqimi kamaygan va oxirgi o'n yillar davomida ilgari kelgan ko'plab ustalarning vataniga ketishi kuzatilgan. Sababi, inqilobdan keyin, qo'rg'onlar qurilishi sezilarli darajada kamaygan. 1968 yildagi manbalarga ko'ra hovli devorlarining quruvchilarga ehtiyoji XIX asrning so'nggi o'n yilliklarida mahalliy ustalar tomonidan to'liq qondirilgan. Qo'rg'on devorlariga an'anaviy naqsh elementlarini takrorlaydigan qo'rg'on bezaklarining biroz soddalashtirilgan shakli 3 paxsa balandlikdagi bog' devorlar qurila boshlangan.

Samarqandda Tojikistonning tog’ hududlaridagi – Qorategindagi ustalar ishlamagan. Farg’ona va Toshkentdagi darvozaliklar ham faqat paxsa devorlarni ko’tarish bilan shug’illanishgan.

Ustalar ish jarayonida quyidagi ish qurollaridan foydalanishgan:

2 belkurak – *bel*, ulardan biri paxsa uzatish uchun – *ko’taray* – “*digonbel”, ikkinchisi* – ortiqcha paxsani olib tashlash va paxsa devorni tekislash uchun – tarashaydigon bel – ikkalasi ham uncha katta bo’lmagan to’g’ri to’rtburchak (temirdan yasalgan) shaklida. Belkurakning temir qismining markaziga temir qopqoq - *qumgon* maxkamlangan. Bu qumgon yog’ochli bandi temir plastina – *pulod* belkurakning yon tomonidan kiritiladigan mix orqali maxkamlangan. Belkurakning sifati qumgon va pulodning sifatiga bog’liq bo’lgan.

2 ta ketmon – ularni odatta xo’jalik egasi taqdim etgan.

Ip, yoki *rajja*, yoki *raja ip* – bu ipni avvallari qog’oz ipdan qilishgan. Uzunligi 50-60 gaz bo’lgan. Chunki qo’rg’on uzunligi 60 gazdan oshmagan.

Tikterash – belkurakcha, yarim doira shaklida. Devor yuzasida kannelyur yaratishda ishlatilgan.

Gulterash, – yoki *belcha* – huddi tirterashdek ish quroli lekin undan nozikroq. Uning yordamida qo’rg’onning guldastalar va boshqa qismlariga nozik bezaklar berilgan.

Pichoq – keng yuzli pichoq, rozetka, ravoq va boshqa shakldagi bezaklarni o’yishda ishlatilgan.

Bu asboblardan tashqari qo’rg’on naqshlarini yaratish uchun yana boshqa ish qurollari ham ishlatilgan.

Qo’rg’onlarni qurishda devorlarning to'g'ri orientatsiyasiga katta e'tibor berilgan. Bu borada xato qilish usta uchun katta sharmandalik deb hisoblangan. U davrlarda Yer shari bo'yicha to'g'ri orientatsiya olish, birinchi navbatda, diniy qarashlarga ko'ra zarur edi - shunday qilib, uyda namoz o'qiyotganda, qibla qayerda ekanligini odamlar osongina aniqlay olishgan. Ikkinchidan, - yana bir muhim omil deb hisoblangan vaziyat, - agar qo’rg’on noto'g'ri orientatsiyaga ega bo'lsa, marhumni yuvishda uni qanday yotqazishni bilish mumkin emas edi: marhum oyoqlari bilan qiblaga qaratib yotqizilishi kerak bo’lgan.

Qo’rg’on asosini qurish davomida yer maydonida avval qo’rg’on devorlarining chiziqlari belgilab olingan. Buning uchun avval devorning uzunligi va kengligi ip yordamida belgilab olingan va burchaklarga qoziqlar qoqilib iplar maxkamlangan. So’ng esa to’g’ri to'rtburchakning to'g'riligi diagonallarni o'lchash orqali tekshirilgan. Hosil bo’lgan to’g’ri to’rtburchak chiziqlaridan ichkariga qo’rg’on devorining kengligi o'lchanib belgilangan. Qo’rg’onlar uchun odatda poydevor qilinmagan. Usto Botir gaplariga ko'ra, ilgari qo’rg’on devorlarining osti yog'och – “*gurza”*, “*shibba”*lar bilan to’ldirilib bosilgan ekan. 1939 yilda Pisarchik A. K. ga quyidagi afsonani aytib

berishgan ekan: “Boy chorvador Yer-Mahmadning qo'rg'oni qurilishi (Yunuchka-Ariqning 4-guzarida, Mahau qishlog'i yaqinida) tuproqni bostirish uchun ko'p sonli otlar qurilish joyidagi devorlar joyidan haydalgan. Agar tuproq zaif – bo’sh bo’lsa, avval yerni sug'orilib so’ng uzoq bostirilgan”. Eng qattiq tuproq beda ekinlari ostida bo’lgan - beda poya, uni deyarli zichlash shart bo’lmagan. Usto Beshimning so'zlariga ko'ra, Samarqandda qo'rg'on devorlari ostidagi yer kamdan-kam hollarda zichlangan. Yerni bostirish va zichlash Kerkida qo’llanilgan, chunki u joylarda yer juda yomon – xom va sho'r bo’lgan. Shahrisabzda tuproq qo’rg’on qurish uchun umuman mos bo’lmaganligi sababli u yerlarda umuman qo’rg’onlar qurilmagan.

Devor uchun belgilangan qalinlikning tashqi tomonidan yarim gaz *payroha* (tojikchadan yurish yo’li) bo'sh joy qoldirib ketilgan va so’ng esa loy uchun – *loyxona* chuqurlik qazishgan. Agar qo’rg’on yonida tuproq qurilish uchun mos kelmasligi ma'lum bo'lsa, u holda loy boshqa joyda tayyorlangan. Ko'pincha xuddi shu xo’jalik hududining boshqa tomonida tayyorlangan va zambil yoki arabada ish joyiga olib borilgan.

Usto Batirning so'zlariga ko'ra, eng yaxshi tuproq - *qoraturpok*, undan biroz yomonrog’i – *qiziltuprok*. Lekin agar undan paxsani yaxshilab tayyorlansa, undan qurilgan devorlar ham uzoq vaqt turgan. Har bir turdagi tuproqning bir nechta navlari mavjud. Usto Beshimning fikricha, eng yaxshi tuproq qizil, lekin sarg'ish – *mallatob* tuproq ham yaxshi bo’lgan. Qum aralashmali tuproq – *qum tuproq* umuman qo’rg’on qurilishiga mos kelmagan.

Loyxona uchun mo'ljallangan joy suv bilan to'ldirilgan, keyin qazilgan (turkm. chapadilar, toj. mekanand), yana suv bilan to'ldirilgan va yana bir marta qazilgan. Devorlarning mustahkamligini ta'minlash uchun ikki yoki uch marotaba shunday qilishgan va keyin esa suyuq hali qurimagan loyni odamlar oyoqlari bilan bosib aralashtirishgan. Boylarning qo’rg’onlarida, loy mustaxkam bo’lishi uchun loyni buqalarga bostirishgan (ba'zi xabarlarga ko'ra va otlar).

Aytilishicha, boylarning qo'rg'onlari qurilishida yoriqlar paydo bo’lmasligi uchun loyga sut qushishgan ekan, ammo bu haqda kitoblarda hech qanday ma'lumot berilmagan.

Qorilgan loy oz vaqtga qattiqlashishi uchun qoldirilishgan, so'ngra bosilib, tayyor holatga keltirishgan. Tayyor loy massasi shu darajada pishgan bo’lishi kerak ediki bosayotgan odamlarning oyoqlari izi unga tushmasligi kerak bo’lgan. Agar loy ba'zi joylarda juda suyuq bo’lsa, tuproq qo’yishgan, agar u juda qattiq bo'lsa, unga suv qo'shishgan. Odatda bunday loyni oyoqda bosish jarayonida mahalla bolalari mamnuniyat bilan ishtirok etishgan. Ular xarakterli holatda ishlashgan - boshlarini egib va orqa tomoniga tushirilgan qo'llarining qo'llarini bog’lagan holda. Keyin yaxshi loy oyoq osti qilishga tayyor, yomonni uchinchi marta ishlash kerak bo’lgan. Agar tuproqning sifati yaxshi bo’lsa loy ham bosilgandan so’ng tayyor bo’lgan. Yomoniga

esa uchinchi martta ishlov berish kerak bo’lgan. Loyning konsistensiyasi kerakli holatga yetkazilmasa belkurakda turmaydi, undan tushib ketadi.

Ustalar paxsa devorlarining ikki turini ta’kidlashgan - *bog' devorlari*, 3-4 paxsa qatoridan iborat va - *qo’rg’on devorlari* (turk. qo’rg'on devoli, toj. devoli qo’rg'on), 5 yoki 7 qator paxsa, kamdan-kam hollarda 6 qator. Ko'p holatlarda, uyning shiftidagi to’sinlari soni aniqlashda ham *toq* qilishgani kabi paxsa qatorlari sonini ham toq qilishgan. Paxsa devorlar sonini *juft* qilish qo’rg’on yashovchilari uchun bexosiyat hisoblangan.

Ko’p hollarda qo’rg’onlarni 5 qator qilishgan. Ustalar devorlarni asosidagi qalinligidan ajratishgan:

1) *sechoyrak* - sechorak (taj. uch chorak) 1 gazning to'rtdan uch qismiga teng (1gaz = 83 sm) yoki 3 qarich (qarish - cho'zilgan qo'lning bosh barmog'i va kichik barmog'i orasidagi masofa); odatda, bu qalinlikda bog’ to'siqlari qilingan;

2) *gazbar* - kengligi bitta gaz yoki 4 qarich: ko'pincha 5 qator paxsa balandlikdagi qo'rg'on devorlarining eni shunday bo'lgan;

3) *gazuchoynak* - kengligi 1 arshin chorak bilan yoki 5 qarich; odatda 7 qator paxsali qo'rg'onlarning devorlari shunday qilingan, ammo ba'zan mustaxkamlik uchun 5 qatorli qo’rg’on devorlari qalinligi ham shunday qilinlikda qilingan;

4) 7 qator paxsali qo’rg’onlarning devorlari ba'zan bir yarim gaz qalinlikda bo'lgan. Aytishlaricha, qadimda ba'zida shunday qalin devorlar qilingan ekanki, ularning tepasidan kichik eshak bog'langan araba o’ta olgan.

Sechorak *bog' devorlari* uchun har bir paxsa qatlamining balandligi ularning poydevorlari kengligiga teng ya'ni 3 qarichga, *qo’rg’on devorlarida* esa paxsa qatorining balandligi har doim 1 gazga teng bo’lgan. Qo’rg’on devorining asosi 1 gaz bo’ladimi, 1 gaz-u chorak bo’ladimi yoki bir yarim gazmi nechchiga teng bo'lishidan qat'iy nazar paxsa qatori 1 gaz qilingan. Ba'zan sechorakning bog' devorini balandroq ko'tarish uchun, poydevor kengini 3 o’rniga 2,5 qarich qilingan, balandligi esa 3 dan 3,5 qarichga ko'tarilgan. Shu orqali, devor umumiy balandligi 9 emas, balki 10,5 qarichga yetgan. XX asr oxirlarida esa texniklar bog' devorlarini 2 m dan past bo’lmasligini talab qilishgan. Bunday devorlar asosi 3 suyam (suyam – cho'zilgan bosh va ko'rsatkich barmoqlar uchlari orasidagi masofa) bo'lgan va har bir paxsa qatorda ozgina balandlikdan olib tashlangan.

Paxsa devorlari har doim yuqoriga qarab toraytirib qurilgan. Bog’devorlarda agar birinchi asos paxsa qatori 2,5 qarich bo’lsa, ikkinchisi esa 2 qarich va uchinchisi asosida 1,5 qilingan. Qo'rg'on devorlarni qurish jarayonida har bir paxsa, Usta Botirning ta'rifiga ko'ra, qo’rg’on devorlarini yaratish jarayonida har bir tomondan paxsani 1 barmoq bo’g’imga toraytirib ketilgan, Usto Beshimning ta'rifiga ko'ra esa, ikkinchi paxsa birinchisidan 2 barmoqqa, uchinchisi ikkinchisidan 3 barmoqqa,

to'rtinchisi esa uchinchisidan yarim qarichga; shunda devor yuqorida 20 sm kenglik qolgan.

Usto Botirning so'zlariga ko'ra, 7 qavat paxsadan baland qo'rg'onlar qurilmagan. "Na odamlar, na turpoq bardosh beradi", - loyni tepaga tashlash juda qiyin deyishgan. Pastki qatorlarni ko'tarish jarayonida paxsa uzatuvchilar - *belchilar* belkurakka 8-10 kilogramm og'irlikdagi qorishmadan olib ota olishgan, eng kuchli odamlar hatto 12-13 kilogrammgacha bo'lgan qorishmani ham ko'tara olishgan. Yuqori paxsa qatorlarini ko'tarishda esa atiga 1-2 kg qorishmadan ko'tarishgan. Bu jarayon juda qiyin bo'lgan.

7 paxsa qatoridan iborat qo'rg'on devorlarining yuqori qavatlarini qurishda narvon qo'yishga va havozalar qilishga to'g'ri kelgan.

Masalan, Hakim sudxo'rning 7 paxsali qo'rg'onini qurishda paxsani belchi bilan devor yasagan ustaga uzatish uchun ular orasiga bir odamni narvonga qo'yishgan. Afsonalarga qaraganda, Tursun oqsoqol qo'rg'oni qurilishida uning o'g'illaridan biri 20 yoshli yigit Qobil-Xoji o'zining g'ayrioddiy kuchi bilan hammani lol qoldirgan ekan. U belkurak yordamida paxsani loyxonadan paxsaning eng so'ngi yettinchi qavatigacha hisoblaganda 7 m masofaga otganligi bilan hammani hayratga solgan.

Devolzan ustalari odatda 4 kishidan iborat guruhlarda ishlashgan (katta qo'rg'onlarni qurish uchun - vaqti-vaqti bilan 6 kishi bo'lib): 2 ta *ketmonchi* - paxsani tayyorlovchi, 1 ta *belchi* - paxsani belkurakka uzatuvchi va 1ta *usta* - devorni yasovchi.

Qo'rg'onlar asosiy darvozalaridagi va burchaklar bo'ylab ko'tarilgan minoralardan tashqari, har bir devor uzunligi bo'ylab mustahkamlik uchun yana bir nechta konstruktiv minoralar qilingan - *guldasta*, ba'zida esa *qubba* qilingan.

XX asr birinchi yarmida usta va qo'rg'on egasi qurilish jarayoni shartlarini shunday kelishib olishgan: qo'rg'on egasi ustani taklif etib, u bilan qurilishning taxminiy hajmini aniqlab olishgan, shuningdek to'lovni ham kelishib olishgan. To'lov har bir gaz uzunligi uchun hisoblab amalga oshirilgan. Sechorak devorlari uchun 1,5-2 tanga, naqshsiz har bir gaz devor (gazber) uchun - 3 tangadan, naqshli har bir devor uchun - 3,5-4 tangadan to'langan. Devor kengligi bir gaz-u chorak va bir yarim gaz bo'lgan qo'rg'onlar narxi esa ancha qimmatroq bo'lgan chunki bundan qalin devorlarni ko'tarish ham juda qiyin bo'lgan.

Bir kun davomida bir guruh odam (4kishi) paxsaning pastki qatorimi yuqorisimi bundan qat'iy nazar 30 gaz uzunlikdagi paxsa qatorini qurishi normal hisoblangan. Yuqoridagi paxsa qatori ingichkaroq bo'lgan, lekin pastki qatorga paxsani uzatish oson bo'lgan.

Bir mavsumda 4 kishidan iborat guruh kamdan kam hollarda bir yirik qo'rg'ondan ortig'ini qura olishgan. Chunki har bir solingan qatorga kamida 3 kun qurib darz ketishiga vaqt berish kerak bo'lgan. Ayniqsa pastki birinchi paxsa qatorini yaxshilab quritish kerak bo'lgan. Kulbai-Payon qishlog'idagi mashhur tojik usta-devolzan Usto Hasan o'zining mashhur mustaxkam qo'rg'on devorlari bilan tanilgan.

Har safar birinchi paxsa qatorini ko’targandan so'ng, taxti-Sulaymon mazariga Oshga ziyorat qilgani ketib,qaytgandan keyingina o’z ishini davom ettirgan.

Bir guruh ustalar ish haqqini olganlaridan so’ng odatda pulni 4 qismga bo'lishgan, ammo keyin uchta ishchining har biri o'z ulushidan paxsa devorlarga naqsh o’ygan bosh ustaga bir necha tangadan berishgan.

Yana shunday holat ham bo’lgan ekanki bir guruh ustalari tomonidan bir-biridan uncha uzoqda bo’lmagan 4 qo’rg’onni bir vaqtning o’zida ko’tarishga erishishgan. Bir qo’rg’onning bir qatori ko’tarilguncha boshqa biridagi bitgan qator qurib turgan. Ammo bunday holatlar ko’p bo’lmagan. Manbalarda faqatgina bittasi haqida aytib ketilgan. Chunki bir vaqtning o’zida bittadan oshiq qo’rg’onni ko’tarish juda qiyin bo’lgan.

Qo’rg’on devor qurilishi nihoyasiga yetkandan so’ng qo’rg’on egasi ustalarga sovg’alar atagan. Ko’p hollarda ishchilarga cho’pon kiydirilgan. Eng bosh ustaga qimmatrog’idan, belchi – ga arzonrog’idan va ketmonchilarga – eng arzonidan. Bog’ devori qurilishi nihoyasiga yetganda esa har bir gaz uchun kelishilgan ish haqqidan ortiqcha hech qanday sovg’a salomlar va to’n kiydirishlar bo’lmagan.

Har bir gaz uchun ish haqqini aniqlashda uy egasi ustalarga oziq-ovqatni beradimi yoki ular o’zi sotib oladimi shular inobatga olingan. Qurilish qiyin bo’lsa ustalarga baqquvat ovqatlar zarur bo’lgan, shu sababli ular uchun qo’y so’yilgan. Bog’devol qurulishi uchun uy egasi ustalarga oziq-ovqat bermayotgan bo’lsa 1gaz devor uchun 3 rubldan, oziq-ovqat bilan ta’minlasa 2 rubl 20 kopeyka bergan. (1968-yil) Qo’rg’on devor qurilishi uchun esa oziq-ovqatsiz 3 rubl 50 kopeyka va oziq-ovqat bilan 20 rubl 50 kopeyka berilgan.

Baland qo’rg’on devor qurilishi va unda naqsh o’yilishi kerak bo’lsa ustalar oziq-ovqatsiz ish haqqi yuqoriroq bo’lsa ham oziq-ovqatli taklif ular uchun manfaatliroq bo’lgan.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Булатов М. С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии. – М. “Наука”, 1988.
2. Воронина В. Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – Москва, 1951.
3. Воронина В.Л., Бородина И.Ф., Бретаницкий Л.С., Ноткин И.И., Всеобщая история архитектуры Том 8. – Москва, 1969.
4. Засыпкин В. Н. Архитектура Средней Азии.– Москва, 1948.
5. Захидов П. Ш. Самаркандская школа зодчих XIX-начало XX века. – Ташкент,1965.
6. Кадырова Т. Ф. Пути архитектурного возрождения Узбекистана за XX начала XXI вв традиции и современность Т. – 2007.

7. Ноткин И. И. Искусство древних, “Узбекистан”. – Ташкент, 1967.
8. Писарчик А. К. Народная архитектура Самарканда.– Душанбе, 1974.
9. Полупанов С. Н. Архитектурные памятники Самарканда. – Москва, 1948.
10. Пугаченкова Г.А. - Зодчества центральной Азии XV век. – Ташкент, 1976.
11. Пугаченкова Г.А. - Архитектурное наследие Узбекистана. – Ташкент, 1960.
12. Ремпель Л. И. Архитектурнқй орнамент Узбекистана. – Ташкент, 1961.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МЎҒУЛЛАР БОСҚИНИ АРАФАСИДА Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич	4
2.	YASA OF CHANGIZ KHAN Nazifullah Kargar Barakatullah Haykal Zada	17
3.	DIE VERWENDUNG VON MODALVERBEN IM DEUTSCHEN Gulnoza Eshniyozova Abdinazarovna	24
4.	HISTORY OF FORMATION OF ANCIENT TURKIC PEOPLES Gulyamov Xurshid Jamshedovich	31
5.	IQ TUSHUNCHASI. IQ TESTLARI Rajabova Zamira Ravshanbekovna	36
6.	ISSUES OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF ENGINEERS Khudoykulov Rustam Kuchkarovich	43
7.	MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH JIHATLARI M.Norinov A.Ergashev	52
8.	ОЛОВБАРДОШ ТЎҚИМАЧИЛИК МАТОЛАРИНИНГ СУВ ВА ЁҒ ЎТКАЗУВЧАНЛИГИНИ АНИҚЛАШ Садиков Акрамжон Рўзибоевич Файзиев Жаҳонгир Баҳромович Нуркулов Файзулла Нурмуминович	56
9.	RASTOROPSHA (SILYBUM MARIANUM) O’SIMLIGINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI Axmedov Egamyor Toshboyevich Xamdamov Jasurbek Kimsanboyevich	60
10.	SINTAKTIK OMONIMLAR Polvonova Bashorat Mirobijonovna	63
11.	ИЗУЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФОРМ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ Мамбетов Икрам	70
12.	ҲИДОЯ АСАРИГА ЁЗИЛГАН БЕШТА МЎЪТАБАР ШАРҲ КИТОБЛАРИ Илҳомжон Муроталиевич Ғофуров	74
13.	OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA TIBBIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI Kultayev Shuxratjon Xolboyevich	79
14.	ENGLISH PHONETICS AND PHONOLOGY. THE IMPORTANCE OF ENGLISH VOWEL IN ENGLISH LINGUISTICS Khakimova Dilshoda Oybek qizi	83
15.	SAMARQAND SHAHRI ATROFIDAGI QO’RGON VA BOG’ DEVORLARINING QURILISH TEXNOLOGIYASI VA QURUVCHI USTALAR TARKIBI Djamilova Maftuna Dilmurod qizi	86

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil. 94 bet.
© Talqin va tadqiqotlar,
© Mualliflar jamoasi.